Iqtisodiy yoki soliq zonasi	I.3.06	
4.Manzili		
Viloyat	I.4.01	

Tuman	I.4.02	
Shahar	I.4.03	
Aholi punkti	I.4.04	
Pochta indeksi	I.4.05	
Manzili	I.4.06	
II. BINO VA INShOOTLAR TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR		
1. Ro‘yxatdan o‘tkazishga oid ma’lumotlar		
Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma tartib raqami	II.1.01	
Davlat ro‘yxatidan o‘tkazgan vaqti (sanasi)	II.1.02	
Huquqni tasdiqlovchi hujjat kachon, kim tomonidan berilgan	II.1.03	
Bino yoki inshootga bo‘lgan huquq turi	II.1.04	
Kadastr raqami	II.1.05	
Bino va inshootlarga bo‘lgan huquqni cheklash va taqiqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar, servitutlar	II.1.06	
Bino va inshootlarni yoki uning bir qismini ijaraga berilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar	II.1.07	
2. Hisobga olishga oid ma’lumotlar		
Ob’ektning nomi	II.2.01	
Bino va inshootlarning turi	II.2.02	
Bino va inshootlarning konstruktiv turi	II.2.03	
Foydalanish maqsadi	II.2.04	
Bino va inshootlarning texnik xolati	II.2.05	
Foydalanishga topshirilgan vaqti	II.2.06	
Ob’ektdan foydalanish tartibi va uning toifasi	II.2.07	
Ob’ekt ko‘rsatadigan xizmat turi	II.2.08	
3.Manzili		
Viloyat	II.4.01	
Tuman	II.4.02	
Shahar	II.4.03	
Aholi punkti	II.4.04	
Pochta indeksi	II.4.05	

Manzili	II.4.06	
III. SUB’EKT TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR		
1.Umumiy ma’lumotlar		
Yuridik shaxslar uchun:		
Tashkilot nomi	III.1.01	
Tashkil etilgan vaqti	III.1.02	
Davlat ro‘yxatidan o‘tkanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar	III.1.03	
Tashkiliy-huquqiy shakli	III.1.04	
Kaysi sahoga ta’luqliligi	III.1.05	
Mulk shakli	III.1.06	
PIN (Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami)	III.1.07	
Faoliyat turining kodi (OKONX)	III.1.08	
Jismoniy shahslar uchun:		
Familiya Ismi Sharifi	III.1.09	
Tug‘ilgan vaqti	III.1.10	
Fuqaroligi	III.1.11	
Pasport ma’lumotlari	III.1.12	
Sloiq to‘lavchining identifikatsion nomeri	III.1.13	
2.Manzili		
Viloyat	III.2.01	
Tuman	III.2.02	
Shahar	III.2.03	
Aholi punkti	III.2.04	
Pochta indeksi	III.2.05	
Manzili	III.2.06	

6-Mavzu: Rivojlantirish tendentsiyalarini ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari.

Режа:

1. **Yer uchastkasiga bo‘lgan huquni davlat ro‘yxatiga olish**
2. **Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish**

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquni davlat ro‘yxatiga olish – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer uchastkasiga bo‘lgan huquning davlar reestriga kiritilishi. *O‘zR YKning 35-moddasiga asosan, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari davlat ro‘yxatiga olinishi kerak. Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish yer uchastkalari joylashgan yerda amalga oshiriladi.* Davlat reestriga quyidagilar kiritiladi:

1. yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni olgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
2. yer uchastkasining tavsifi ;
3. yer uchastkasi berish to‘g‘risidagi shartnoma talablariga, yer uchastkasini saqlash vazifalari va servitutlarga oid ma’lumotlar;
4. vakolatli organlarning yer uchastkasini davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun ajratib olish zonasiga kiritish to‘g‘risidagi qarorlari;
5. qonun hujjatlarida belgilangan boshqa ma’lumotlar.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olish yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar to‘g‘risidagi zarur hujjatlar ham ilova etilgan ariza kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kunlik muddatda tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatiga olingani to‘g‘risida ro‘yxatga olingan sana va tartib raqami ko‘rsatilgan holda guvohnoma beriladi. Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatiga olishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

— davlat ro‘yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasi kimga tegishli ekanligi to‘g‘risida nizo borligidan dalolat beruvchi hujjatlar borligi;

— davlat ro‘yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjudligi.

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatiga olish tartibi O‘zR VMning 1998- yil 31- dekabrdagi 543-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom va O‘zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma bilan tartibga solinadi.

- yuridik va jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini, shu jumladan bitimlar asosida vujudga kelishini, cheklanishini, bekor qilinishini tan olish va tasdiqlashning huquqiy hujjati.

- Jismoniy va yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli er uchastkalaridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi er tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonalarining filiallari tomonidan amalga oshiriladi.
- Ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun haq olinadi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi

- Ro‘yxatga oluvchi, ko‘chmas mulk ob’ektiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda, hujjatlarni olgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi.
- Agar taqdim etilgan hujjatlarda kichik texnik kamchiliklar bo‘lsa va ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lsa yoki qo‘shimcha hujjatlar talab qilinsa, ro‘yxatga oluvchi 1 kun ichida ro‘yxatdan o‘tkazishni 3 ish kunigacha to‘xtatib turishga qaror qiladi va qarorni Davlat xizmatlari markaziga yuboradi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish uchun asoslar

Er uchastkasining paydo bo‘lishi, boshqa shaxslarga berilishi va quyidagi huquqlarning bekor qilinishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak

Er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning paydo bo‘lishi quyidagi hujjatlar asosida ro‘yxatga olinadi.

Er uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning bekor qilinishi uchun quyidagilar asos bo‘ladi

- Erga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Davlat xizmatlari markazlariga yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali kadastr organlariga murojaat qilish lozim.
- Davlat xizmatlari markazlari manzillari haqida ma’lumot olish uchun havolaga o‘ting.
- Erga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqida to‘liq ma’lumotni havola orqali olish mumkin.
- bino — funksional maqsadiga qarab, odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;
- yer uchastkasi — yer yuzasining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda boshqa xususiyatlarga ega bo‘lgan qismi;
- inshoot — har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo‘lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o‘tishga mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida joylashgan qurilish tizimi;
- kadastr yig‘majildi — ob’ektning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan kadastr suratiga olish, texnik xatlovdan o‘tkazish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlari, materiallari va ma’lumotlari jamlamasi;

- 8. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan kadastr yig‘majildini tayyorlash va uning natijasi bo‘yicha kadastr pasportini taqdim etish kadastr ob’ektining murakkabligiga qarab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:
- a) ko‘chmas mulk ob’ektlarining turar joyga oid qismi bo‘yicha:
- ko‘p kvartirali uydagi kvartira — 3 ish kunigacha;
- yakka tartibdagi turar joy — 5 ish kunigacha;
- b) ko‘chmas mulk ob’ektlarining noturar joyga oid qismi hamda yaxlit ko‘p kvartirali uylar bo‘yicha:
- umumiy maydoni 100 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 5 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 100 kv. metrdan 1 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 7 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 1 000 kv. metrdan 5 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 10 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 5 000 kv. metrdan 15 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 15 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 15 000 kv. metrdan 50 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 20 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 50 000 kv. metrdan ortiq bo‘lgan ko‘chmas mulk — 25 ish kunigacha;
- ajratilgan yer uchastkalari bo‘yicha — 3 ish kunigacha;
- kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), yangi kadastr pasporti 2 ish kuni mobaynida beriladi.
- v) ko‘p yillik dov-daraxtlar joylashgan yer uchastkasi bo‘yicha:
- umumiy maydoni 1 gektargacha — 10 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 1 gektardan 5 gektargacha — 15 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 5 gektardan 10 gektargacha — 20 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 10 gektardan 100 gektargacha — 25 ish kunigacha;
- umumiy maydoni 100 gektardan ortiq — 30 ish kunigacha.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: ArcGIS Desktop va ArcGIS Pro dasturlarini o‘rganish.

Ishdan maqsad:
- ArcGIS dasturini o‘rganish;
- ArcGIS Pro dasturini o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: ArcGIS dasturini ochish va uning imkoniyatlarini o‘rganish

bajarish vaqti: 30 minut

Ushbu topshiriqda biz geoaxborot tizimlarida foydalaniladigan geoma’lumotlar bazasini o‘rganib chiqamiz. Ularning imkoniyati, foydalari haqida bilimga ega bo‘lamiz. Fayl geoma’lumotlar bazasi bilan shaxsiy geoma’lumotlar bazasi orasida farqlarini ko‘rib chiqamiz. Ko‘p foydalanuvchi geoma’lumotlar bazasini foydalanish imkoniyatlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘lamiz.

Topshiriq quyidagi bosqichlar orqali bajariladi:

1-bosqich. ArcCatalog dasturi haqida

ArcGIS dasturiy ta’minotida ma’lumotlar bilan, ayniqsa, fazoviy ma’lumotlar bilan ishlashning aniq modeli mavjud bo‘lib, ushbu model geoma’lumotlar bazasi deb yuritiladi. Geoma’lumotlar bazasi ArcGIS ilovalari bilan ishlash jarayonida qo‘llanadigan barcha turdagi ma’lumotlarni saqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni geoma’lumotlar bazasi turli xil ma’lumotlarni saqlashda ombor vazifasini bajaradi. Geoma’lumotlar bazasi yordamida nafaqat lokal ko‘rinishda yoki serverda saqlanadigan ma’lumotlarni samarali boshqarish, balki turli sohalar va loyihalar bilan ishlash jarayonida murakkab modellarni yaratish mumkin. Geoma’lumotlar bazasi bilan ishlashda foydalanuvchilar bir vaqtning o‘zida ikki xil model bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bular fizik va mantiqiy modellardir. Bu esa obyektlarning nafaqat geometrik bog‘liqligini ta’minlaydi, balki ularni obyekt darajasida bog‘lash imkonini ham beradi.

Geoma’lumotlar bazasida ma’lumotlar lokal ko‘rinishda, ya’ni foydalanuvchilarning shaxsiy kompyuterlarida yoki serverda saqlanishi mumkin. Geoma’lumotlar bazasini saqlashning quyidagi variantlari mavjud:

faylli geoma’lumotlar bazasi – diskdagi faylli papkalar;

shaxsiy geoma’lumotlar bazasi – Microsoft Access (.mdb) faylidagi ma’lumotlar bazasi;

MBBS (Ma’lumotlar bazasini boshqarish sistemasi –Oracle, SQL Server, Informix, DB2 yoki PostgreSQL).

Geoma’lumotlar bazasini modellashtirishda foydalanuvchilar kelgusida qilinishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va noaniqliklarning oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ba’zi bir qoidalarni kiritishlari mumkin. Shuningdek, ma’lumotlarni kiritishda maxsus tekshirish qurollari yordamida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish imkoniyati mavjud. Geoma’lumotlar bazasida foydalanuvchilar nafaqat ma’lumotlari jadvallarda saqlanadigan oddiy nuqtalar, chiziqlar va poligonlar bilan ishlaydilar, balki real dunyo obyektlariga tayanib ish yuritishlari ham mumkin.

ArcCatalog - bu turli xildagi geografik ma’lumotlar bilan ishlash va ularni boshqarishga mo‘ljallangan. *ArcCatalog* ilovasi orqali quyidagi turdagi ma’lumotlarni tashkil etish va boshqarishi mumkin:

- geoma’lumotlar bazasini yaratish;
- rastrli fayllarni bog‘lash;
- hujjatlarni, globuslarni, *3D* tasvirlarni va qatlamli fayllarni yaratish;
- grafikli qayta ishlash asboblari, modellari, *Python* skriptlari bilan ishlash;
- *ArcGIS* servis uchun chop etilgan GIS xizmatlarini o‘rganish;
- GIS elementlari uchun maxsus standartlarda metama’lumotlarni ko‘rish va h.k.



1-rasm. *ArcCatalog* ilovasining ishchi oynasi

2-bosqich. ArcCatalogda geoma'lumotlar bazasini yaratish tartibi

1. *ArcGIS* dasturida har qanday mavzuli xaritalarini yaratishdan oldin *ArcCatalog* ilovasida xaritaning geografik va matematik asos elementlari tanlanadi, so‘ngra ma’lumotlar bazasining strukturasi yaratiladi.

Dastlab *ArcGIS* dasturining *“ArcCatalog”* ilovasini tanlaymiz. Bu yerda xarita chizish uchun zarur bo‘ladigan mavzuli qatlamlarni yaratamiz. Bizga asosan 3 xil mavzuli qatlam kerak bo‘ladi - ular maydonli, chiziqli hamda nuqtali qatlamlardir. Har bir qatlam *“ArcCatalog”* orqali alohida-alohida yaratiladi. Misol uchun, maydonli qatlam yaratmoqchi bo‘lsak, u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Dastlab *ArcCatalog*da yaratilmoqchi bo‘lgan mavzuli qatlamni saqlash uchun kompyuterning xotirasida ish jarayoni uchun yangi popka ochiladi va shu popka *ArcCatalog*ga bog‘lanadi.



2-rasm. ArcCatalog dasturiga kompyuter xotirasidagi popkani bog‘lash

So‘ngra ushbu papkada sichqonchaning o‘ng tugmasi bosilib, *New* ⟶ *File Geodatabase* tanlanadi, unga ham nom beriladi. Shu bo‘yicha mutaxassis o‘zining shaxsiy bazasini yaratib oladi.



3-rasm. ArcCatalog dasturida faylli geoma'lumotlar bazasini yaratish

Keyingi bosqichda yaratilgan geoma'lumotlar bazasining Ichida sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi va *New* ⟶ *Feature Dataset*...jarayoni amalga oshiriladi, ya'ni papkaga nom beriladi va xarita proyeksiyasi, koordinatalar tizimi tanlanadi.

Kartografik proyeksiya va koordinatalar tizimini tanlash jarayoni, albatta xaritaning maqsadi, geografik asos hamda mavjud ma'lumotlar ko'lamiga bog'liq hisoblanadi**.**



3-rasm. Mavzuli kartalarni yaratish

Hosil qilingan papka ichiga kiriladi va New ⟶ Feature Class… tanlanadi. Unga yaratmoqchi bo‘lgan qatlam nomi yoziladi, masalan, maydonli, chiziqli yoki nuqtali deb nomlanishi mumkin. Agar maydonli qatlam yaratilmoqchi bo‘lsa, *“polygon features”* tanlanadi, chunki ingliz tilida maydon *“polygon”* deyiladi, agar biz boshqa qatlam yaratmoqchi bo‘lsak, unga mos holda inglizcha nom beriladi.



4-rasm. ArcCatalog dasturida yangi qatlam yaratish



5-rasm. Mavzuli qatlam turlarini tanlash



6-rasm. Atribut jadvalini shakllantirish

Dalee tugmasi bosiladi, so‘ngra atribut jadvali hosil bo‘ladi (6-rasm). Jadvalga maydonli qatlam bo‘yicha qanday atributiv ma’lumotlarni kiritmoqchi bo‘lsak, ularni asosiylarini yozib chiqamiz. Qolganlarini ish jarayonida ham kiritsa bo‘ladi. Raqamli ma’lumotlar uchun *“double”*, rasmli ma’lumotlar uchun *“raster”*, yozuvli uchun *“text”* tanlanadi. Qolgan boshqa mavzuli qatlamlar ham shu tariqa yaratiladi.

3-bosqich. ArcCatalog dasturida yaratilgan ma’lumotlarni eksport va import qilish jarayonlari

ArcCatalog dasturi yordamida yaratilgan geoma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni import qilish mumkin yoki aksincha eksport qilish mumkin. Bu jarayon boshqa dasturlar bilan integratsiya qilinishi uchun juda muhim.

ArcCatalog dasturida ma'lumotlarni eksport qilish uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. **ArcCatalog-ni oching**: ArcGIS dasturining ArcCatalog modulini oching.
2. **Ma'lumotlarni tanlash**: Eksport qilmoqchi bo‘lgan ma'lumotlarni toping. Bu

shapefile, geodatabaza yoki boshqa turdagi ma'lumotlar bo‘lishi mumkin.

3. **Ma'lumotlarni o‘ng tugmasi bilan bosing**: Tanlangan ma'lumotlarni o‘ng tugmasi bilan bosing (masalan, shapefile yoki geodatabase ichidagi ob'ekt).

4. **Eksport qilish**:

- **Shapefile** uchun: “Export” -> “To Shapefile (single)…” ni tanlang.
- **Geodatabase** uchun: “Export” -> “To Geodatabase (multiple)” ni tanlang.
- **Layer** yoki **Table** eksport qilish uchun: “Export Data” ni tanlang.

5. **Xususiyatlarni sozlash**:

- Ma'lumotni qayerga eksport qilishni va qanday nom berishni tanlashingiz kerak.
- Agar kerak bo‘lsa, boshqa parametrlarni (masalan, koordinat tizimi) sozlash mumkin.

6. **Eksportni bajarish**: Ma'lumotlarni eksport qilishni boshlash uchun OK tugmasini bosing.

ArcCatalog yoki ArcMap dasturlarida ma'lumotlarni CAD (Computer-Aided Design) formatlariga eksport qilish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak:

1. ArcGIS-da ma'lumotlarni CAD formatiga eksport qilish:

Shapefile yoki Geodatabase ma'lumotlarini DXF (AutoCAD) formatiga eksport qilish:

1. **ArcCatalog-ni oching** va eksport qilmoqchi bo‘lgan ma'lumotlarni tanlang (masalan, shapefile yoki geodatabase ichidagi layer).

2. **Eksport qilish uchun o‘ng tugmasini bosing**: Tanlangan ob'ekt yoki ma'lumotni o‘ng tugmasi bilan bosing va “**Export**” bo‘limini tanlang. Keyin **To CAD** yoki **To DXF** variantini tanlang.

3. **Eksport variantini tanlash**:

- Agar DXF formatiga eksport qilmoqchi bo‘lsangiz, **To DXF** variantini tanlang.
- Agar AutoCAD uchun **DWG** formatiga eksport qilmoqchi bo‘lsangiz, **To CAD** variantini tanlashingiz mumkin.

4. **Sozlamalarni kiritish**:

- **Output Location** (chiqarish joyi) ni tanlang va fayl nomini kiriting.
- **Spatial Reference** (koordinat tizimi) ni sozlashni unutmaying. Bu CAD dasturida ishlov berish uchun muhim.
- Agar kerak bo‘lsa, **Field Mapping** yoki boshqa sozlamalarni kiritishingiz mumkin.

5. **Eksportni boshlash**: Sozlamalarni to‘g‘ri kiritganingizdan so‘ng, **OK** yoki **Run** tugmasini bosing.

CAD formatlaridagi ma'lumotlarni ArcGIS ga import qilish:

Agar CAD fayllarini (masalan, DXF yoki DWG) ArcGIS ga import qilmoqchi bo‘lsangiz, ArcMap-da **CAD to Geodatabase** vositasidan foydalanishingiz mumkin. Bu vosita CAD fayllarini ArcGIS geodatabase formatiga o‘zgartiradi.

2. AutoCAD uchun eksport qilish:

AutoCAD uchun faylni eksport qilishda DXF yoki DWG formatlaridan foydalanish eng keng tarqalgan. ArcGIS-dan DXF yoki DWG formatiga eksport qilingan ma'lumotlar AutoCAD dasturida ishlatilishi mumkin.

DXF faylini yaratish:

- ArcCatalog yoki ArcMap-da **“To DXF”** opsiyasi bilan eksport qilish orqali, geometriyalar (masalan, punktlar, poligonlar, chiziqlar) DXF formatida saqlanadi.
- Faylni AutoCAD dasturida ochish uchun DXF faylini tanlashingiz mumkin.

3. Ko‘proq sozlamalar:

Agar eksport jarayonida maxsus sozlamalar yoki CAD fayli uchun qo‘shimcha parametrlar kerak bo‘lsa, **Toolboxes** (maxsus vositalar) yordamida sozlashlarni kiritishingiz mumkin. Masalan, "Conversion Tools" -> "To CAD" yordamida maxsus formatlar va parametrlarni tanlashingiz mumkin.

ArcCatalog dasturiga ma'lumotlarni **import** qilish uchun quyidagi amallarni bajarishingiz kerak. ArcGIS platformasida import qilish jarayoni asosan ma'lumotlarni

ArcGIS geodatabase yoki boshqa formatlarga o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Mana qanday import qilish mumkin:

1. Shapefile yoki boshqa ma'lumotlarni ArcGIS Geodatabase-ga import qilish:

Shapefile yoki boshqa formatdagi fayllarni Geodatabase ga import qilish:

1. **ArcCatalog-ni oching**.
2. **Ma'lumotlarni tanlash**: ArcCatalog-da import qilmoqchi bo‘lgan faylni tanlang (masalan, shapefile, CAD, CSV, yoki boshqa formatdagi fayllar).
3. **Ma'lumotni o‘ng tugmasi bilan bosing**: Tanlangan fayl yoki ma'lumot ustiga o‘ng tugmasini bosing va **“Copy”** yoki **“Import”** opsiyasini tanlang.
4. **Import qilishni tanlang**:

- Agar shapefile yoki boshqa formatdagi ma'lumotni **Geodatabase** ga import qilmoqchi bo‘lsangiz, **"Import"** -> **"Feature Class"** opsiyasini tanlang.
- Geodatabase faylini tanlang va **“Feature Class”** sifatida ma'lumotlarni import qiling.

5. **Koordinat tizimini sozlash** (agar kerak bo‘lsa): Import qilishdan oldin ma'lumotlar uchun koordinat tizimini (spatial reference) tekshirib chiqing va to‘g‘ri belgilanganiga ishonch hosil qiling.
6. **Import qilishni boshlash**: Parametrlarni kiritganingizdan so‘ng, **OK** tugmasini bosing va ma'lumot import qilish jarayonini boshlang.

2. CAD fayllarini ArcCatalog-ga import qilish:

Agar **AutoCAD DXF** yoki **DWG** fayllarini import qilmoqchi bo‘lsangiz, quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **ArcCatalog-ni oching**.
2. **Import qilish uchun CAD faylini tanlang** (masalan, DXF yoki DWG).
3. **O‘ng tugmasini bosing**: Faylni o‘ng tugmasi bilan bosing va **"Import"** -> **"To Geodatabase"** yoki **"Feature Class"** variantini tanlang.
4. **Koordinat tizimini tekshiring**: Import jarayonida koordinat tizimi muhim

ahamiyatga ega. Shuning uchun kerakli koordinat tizimini tekshirib chiqing.

5. **Import qilishni bajarish**: Parametrlarni kiritib, **OK** tugmasini bosing.

3. CSV yoki Excel fayllarini import qilish:

Agar **CSV** yoki **Excel** fayllaridan punktlar yoki boshqa geolokatsiyalangan ma'lumotlarni import qilmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi amallarni bajarishingiz kerak:

1. **ArcCatalog-ni oching** va **CSV yoki Excel faylini tanlang**.

2. **Faylni o‘ng tugmasi bilan bosing** va **“Add to Display”** opsiyasini tanlang (Agar ArcMap bilan ishlayotgan bo‘lsangiz).

3. Faylni **"XY Table To Point"** vositasi orqali **Feature Class** ga o‘zgartiring (bu vosita CSV faylida kiritilgan X, Y koordinatlari bo‘yicha nuqtalar yaratadi).

4. **Koordinat tizimini tekshiring** va kerakli parametrlarni kiriting.

4. Geodatabase import:

Agar **Geodatabase** faylini boshqa Geodatabase-ga import qilmoqchi bo‘lsangiz:

1. **Geodatabase** faylini tanlang va o‘ng tugmasini bosing.

2. **Import** opsiyasini tanlang va kerakli ma'lumotlar yoki **Feature Class** ni boshqa geodatabase-ga eksport qilishni boshlang.

Qo‘shimcha ma'lumot:

ArcCatalog-da import qilish jarayonida ishlatiladigan ba'zi vositalar:

- **"Feature Class To Feature Class"** – ma'lumotlarni bir Geodatabase’dan boshqa Geodatabase’ga ko‘chirish uchun.

- **"Table To Geodatabase"** – ma'lumotlar jadvalini Geodatabase-ga import qilish.

"CAD to Geodatabase" – CAD formatlaridagi fayllarni Geodatabase formatiga o‘zgartirish.

Nazorat savollari:

1. Geoma’lumotlar bazasi nechi xil ko‘rinishda bo‘ladi?
2. Shape fayli nima uchun kerak bo‘ladi?
3. ArcCatalag dasturi nima vazifani bajaradi?
4. Atribut qatlam deganda nimani tushunasiz?

5. Shape fayllarini geoma'lumotlar bazasiga konvertatsiya qilsa bo'ladimi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 yil.
2. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 yil.
7. I. Masser. GIS Worlds: Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005

2-3-amaliy mashg'ulotlar: SASPlanet dasturi ma'lumotlari asosida geoaxborot tizimi dasturi yordamida hududning 3D relyefini yaratish.

Ishdan maqsad: Hududning 3D relyefini yaratish.

Masalaning qo'yilishi: SASPlanet dasturi ma'lumotlari asosida geoaxborot tizimi dasturi yordamida hududning 3D relyefini yaratish.

Topshiriq 2: SASPlanet dasturi ma'lumotlari asosida geoaxborot tizimi dasturi yordamida hududning 3D relyefini yaratish.

Bajarish vaqti: 60 minut

Topshiriq yakunida quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lasiz:
- SASPlanet dasturi haqida chuqur bilimga ega bo'lasiz
- SASPlanet dasturi yordamida hududning 3D relyefini yaratishni o'rganasiz.

1-bosqich. SASPlanet dasturi imkoniyatlari

SAS.Planet (SASPlanet) Google Earth, Google Maps, DigitalGlobe, Cosmosnimki, Yandex.Maps, Yahoo! tomonidan taqdim etilgan yuqori aniqlikdagi va an'anaviy xaritalardagi kompyuter sun'iy yo'ldosh rasmlarini ko'rish va yuklab olish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Xaritalar, VirtualEarth, Gurtam, OpenStreetMap, eAtlas, iPhone xaritalari, Bosh shtab xaritalari va h.k. Barcha yuklab olingan xaritalar kompyuteringizda qoladi va ularni internet aloqasiz ham ko'rishingiz mumkin. Sun'iy yo'ldosh xaritalaridan tashqari, siyosiy, landshaft va birlashgan xaritalar

bilan, shuningdek, Oy va Mars xaritalari bilan ishlash mumkin. SAS Planet dasturini yuklab olish uchun sasgis.org saytiga kiriladi. Sakachat SAS Planet buyrug‘i yordamida yuklab olish mumkin bo‘ladi. Yuklab olingan fayl zip formatida bo‘ladi.

Ko‘rish va yuklab olishdan tashqari, dastur quyidagi foydali funktsiyalarni taqdim etadi:

GPS qabul qilgich bilan ishlash;

Yo‘nalishni rejalashtirish;

Masofalarni o‘lchash;

KML fayllarini ko‘rsatish;

Panoramio xizmatini qo‘llab-quvvatlash;

Qatlamni to‘ldirish xaritasini yaratish - bu funksiya xaritadagi keshga allaqachon yuklagan yoki aksincha, sizda yo‘q joylarni ko‘rish imkonini beradi;

Xaritaning bir qismini istalgan grafik muharrirda ko‘rishingiz va qayta ishlashingiz mumkin bo‘lgan bitta rasmga saqlash, shuningdek, boshqa GIS ilovalarida, masalan, OziExplorerda foydalanishingiz mumkin (buning uchun dastur georeferent faylini yaratadi);

Siz o‘zingizni qiziqtirgan joylarni saqlashingiz va keyinchalik ularni muammosiz topishingiz mumkin, shuningdek ular doimo xaritada ko‘rsatilishiga ishonch hosil qilishingiz mumkin;

Xaritani ko‘rib chiqish - hozir ko‘rayotgan joyingizning joylashuvini osongina aniqlashga yordam beradi, shuningdek, xaritadagi istalgan boshqa joyga tezda o‘ting;

Xaritani to‘liq ekran rejimida ko‘ring - bu ayniqsa past ekran o‘lchamlari uchun qulaydir;

Barcha oldingilarini bitta qatlamdan o‘zgartirish sizning Internet-trafikingizni sezilarli darajada kamaytiradi, masalan, siz o‘z shahringizni faqat 18 shkalada yuklab olishingiz va uning asosida barcha oldingilarini shakllantirishingiz mumkin;

Xaritalarni iPhone xaritalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan formatga eksport qilish imkoniyati;

Mobil Yandex.Maps 3-versiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan formatga xaritalarni eksport qilish imkoniyati;

Wikimapia obyektlarini yuklash va ko‘rsatish;

Google va Yandex yordamida joylarni qidirish;

Shaxsiy xaritalarni qo‘shish.

2-bosqich. SASPlanet dasturida ma’lumotlarni olish texnologiyasi

SASPlanet dasturida hududning 3D relyefni yaratish quyidagi jarayonlar bilan bo‘ladi:

SASPlanet dasturini https://t.me/Geomatica_TUACE/7 telegram kanali orqali yuklab olamiz. Arxivdan chiqarib dasturni ishga tushiramiz (2.1-rasm).

SASPlanet dasturida kerakli hududni belgilash kerak bo‘ladi. Tatqiqot obyekti sifatida Bo‘stonliq tumanini oldim vas hu tumanning chegaralarini SASPlanet dasturida belgilab olish kerak bo‘ladi. Buning uchun ArcGIS Desktop dasturini ishga tushiramiz. Dasturni https://t.me/Geomatica_TUACE/3 link orqali yuklab olishingiz mumkin. https://t.me/Geomatica_TUACE/6 bu linkda tumanlarning chegaralarini shp fayl formatida berilgan bo‘lib, shp faylni ArcGIS Map dasturi yordami orqali ochib olamiz. 2.2-rasm 1-raqam bilan ko‘rsatilgan instrumentni tanlaymiz va Bo‘stonliq tumanini belgilab olamiz (2.2-rasm, 2). Agar tumanning qayerda joylashganini bilmasangiz, atributlar yordamida qidirib olishingiz mumkin bo‘ladi. Tuman belgilanganidan so‘ng, “ArcToolbox” instrumentlari orasidan Conversion Tools → To KML → Layer to KML tanlanadi (2.2-rasm, 3).



2.1-rasm. SASPlanet dasturining ishchi oynasi (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)



2.2-rasm. ArcGIS Map dasturi orqali shp fayl formatdagi ma’lumotni KML formatiga o‘tkazish (rasm muallif tomonidan ArcGIS Desktop dasturida tayyorlandi)

Instrument tanlanganidan so‘ng yangi oyna ochiladi (2.3-rasm). 2.3-rasm, 1-raqam bilan ko‘rsatilgan joyda tumanlar chegarasi qatlami tanlanadi. 2.3-rasm, 2-raqamda esa, saqlash manzili kiritiladi va “OK” tugmasi bosiladi. Shu bilan shp faylni KML fayliga o‘tkazgan bo‘lamiz.



2.3-rasm. “Layer To KML” instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcGIS Desktop dasturida tayyorlandi)

“KML” yoki “KMZ” fayllarini SASPlanet dasturi orqali ochib olamiz. 2.4-rasm, 1-raqamda ko‘rsatilgan “Открыть…” tugmasi bosiladi va yangi oyna ochiladi. Tumanning chegarasini “KMZ” formatida saqlangan manzili qidirib ustiga bosiladi (2.4-rasm, 2) va “Открыть” tugmasi bosiladi (2.4-rasm,3). Shundan so‘ng yangi oyna ekranimizda paydo bo‘ladi. Bu oynada “Категория” bo‘limiga tumanning nomi yani Bo‘stonliq tumani deb yozib qo‘yamiz. Buning sababi keyinchalik SASPlanet dasturida ma’lumotlarni yig‘ayotganimizda, Bo‘stonliq tumaniga taaluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlar shu bo‘limga saqlab boriladi.



2.4-rasm. “KML” yoki “KMZ” fayllarini SASPlanet dasturida ochish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)



2.5-rasm. Import parametrlari (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

Import qilinib bo‘lganidan so‘ng SASPlanet dasturining oynasida Bo‘stonliq tumanining chegarasi ko‘rinadi (2.6-rasm). Ko‘ringan chegara bo‘ylab metka yaratamiz va shu metkaning otmetkasini olamiz. Metkalarni yaratish 2.6-rasmda batafsil ko‘rsatilgan. Metkaning nomi 1 raqamidan boshlab yozib boriladi va saqlash manzili

tumanning chegarasini saqlangan joyga biriktiriladi. Uzoqlik va kenglik koordinatalarini gradus, minut, sekund ko‘rinishidan gradus ko‘rinishiga o‘tkaziladi (2.6-rasm, 5). Uzoqlik va kenglik koordinatalarini excel jadvaliga metkaning nomi bilan yozib boriladi (2.6-rasm, 6).



2.6-rasm. SASPlanet dasturida metka yaratish va ma’lumotlarni olish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

Jadvalda metka nomi, uzoqlik va kenglik koordinatalari va shu nuqtaning otmetkasi mavjud bo‘lgan ustunlardan iborat bo‘lishi kerak (2.1-jadval). SASPlanet dasturida metkaning otmetkasini olish 2.7-rasmda ko‘rsatilgan. Metka yaratilganidan so‘ng shu metkaga sichqonchani olib boriladi va o‘ng tugmasi bosiladi. Hosil bo‘lgan paneldan “Дополнительные операции → Высота над уровнем море SRTM3 (разрешение ~ 90м)” tanlanadi (2.7-rasm, 1 va 2) va yangi oyna ochiladi. Yangi ochilgan oynada shu nuqtaning otmetkasi paydo bo‘ladi va uni jadvalga kiritiladi. Shu yo‘sinda bir nechta metkalar yaratiladi va jadvalga to‘ldirib boriladi. Metkalarning soni ko‘p bo‘lsa aniqlik ortib boradi. Lekin shuni unutmaslik kerak SASPlanetdan olingan otmetkalar SRTM3 ma’lumotlar bazasidan oladi. U esa bizga piksel masofasi 90 metrga teng bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim qiladi.



2.7-rasm. SASPlanet dasturida nuqtaning otmetkasini olish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

2.1-jadval. SASPlanet dasturida olingan ma’lumotlar

Tartib raqami	Kenglik, °	Uzoqlik, °	H, m
1	41.44054192	69.60127543	581
2	41.43230557	69.61775492	596
3	41.43224122	69.58820771	569
4	41.42451869	69.60880707	579
5	41.41319065	69.59799240	567
6	41.45900555	69.60005234	582
7	41.45604658	69.61533020	592
8	41.45231551	69.62871979	596
9	41.44691150	69.64073609	655
10	41.44292254	69.65378235	670
11	41.43455780	69.64554261	660
12	41.47328392	69.60297058	591
13	41.47058285	69.61962174	601
14	41.46723851	69.63318299	607
15	41.46157846	69.64743088	648
16	41.45656119	69.65910385	698
17	41.45180086	69.67129181	740
18	41.44716885	69.68296479	790
19	41.44279386	69.69429444	847
20	41.44446669	69.67215012	773

3-bosqich. Photomod GeoCalculator dasturi yordamida bir koordinatalar tizimidan boshqa koordinatalar tizimiga o‘tish

PHOTOMOD GeoCalculator bepul dasturi nuqtalar koordinatalarini bir koordinatalar tizimidan boshqasiga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan (17). Photomod GeoCalculator dasturini https://t.me/Geomatica_TUACE/9 linki orqali yuklab olishingiz mumkin. 2.1-jadvalda berilgan WGS-84 geografik koordinatalar tizimidagi ma’lumotlarni WGS 84 / UTM 42N koordinatalar tizimiga o‘tkazish kerak bo‘ladi. Buning uchun Photomod GeoCalculator dasturini ishga tushiramiz. Excel dasturida to‘plagan jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni txt formatiga o‘tkazib olamiz va qatorlardagi probel tashalgan joylarini vergul ishorasiga almashtiramiz. Shunda qatorlar ushbu ko‘rinishga keladi “1,41.44054192,69.60127543,581”.



2.8-rasm. Photomod GeoCalculalor dasturining interfeysi (rasm muallif tomonidan Photomod GeoCalculator dasturida tayyorlandi)

Photomod GeoCalculator dasturini ish faoliyatiga keltirilganidan so‘ng, 2.8-rasm 1-raqamida ko‘rsatilgan tugma bosiladi va u yerdan “Широта-долгота WGS 84(WGS 84)” tanlanadi. Huddi shunday amalni bajargan holda 2.8-rasm 2-raqamdagi tugmaga esa

“WGS 84 / UTM 42N(WGS 84 / UTM 42N) 66° в.д.-72° в.д.” tanlanadi. SASPlanetdan olgan ma’lumotlarimizning txt formatidagisini 2.8-rasm 3-raqamda ko‘rsatilgan tugmani bosish orqali import qilib olamiz. Natijada chap tomon jadvalda koordinatalar otmetkasi bilan birgalikda ko‘rinadi. 2.8-rasm 4-raqamdagi tugmani bosish orqali bir koordinatalar tizimidan ikkinchi koordinatalar tizimiga o‘tiladi. So‘ngra saqlash tugmasini bosib qayta ishlangan ma’lumotlarni txt formatida saqlaymiz. Txt formatidagi ma’lumotlarni excel dasturiga ko‘chirib olamiz. Excel dasturida qayta ishlab, nomi, x-y koordinatalari va otmetkasini alohida ustunlarga ajratib olamiz. 2.2-jadvalda ko‘rsatilgan natijaga erishamiz.

2.2-jadval. Photomod GeoCalculator dasturida qayta ishlangan ma’lumotlar

Tartib raqami	Kenglik, ˚	Uzoqlik, ˚	H, m
1	550230.103	4587837.711	581.000
2	551613.319	4586933.015	596.000
3	549144.692	4586908.679	569.000
4	550871.802	4586063.232	579.000
5	549976.810	4584799.315	567.000
6	550113.716	4589886.815	582.000
7	551391.997	4589567.273	592.000
8	552513.302	4589161.091	596.000
9	553521.400	4588568.504	655.000
10	554614.519	4588133.803	670.000
11	553933.124	4587199.993	660.000
12	550346.388	4591473.684	591.000
13	551738.869	4591183.637	601.000
14	552873.966	4590820.549	607.000
15	554068.445	4590200.979	648.000
16	555047.529	4589651.325	698.000
17	556069.558	4589130.661	740.000
18	557048.605	4588624.047	790.000
19	557998.882	4588145.869	847.000
20	556147.571	4588316.984	773.000

4-bosqich. SASPlanet dasturidan olingan ma’lumotlar asosida geoaxborot tizimi dasturlari yordamida relyef kartalarini yaratish.

Relyef kartalarni yaratishda ArcGIS Desktop dasturidan foydalanamiz. Buning uchun 2.2-bo‘limida ko‘rsatilgan link orqali yuklab olamiz va dasturni kompyuterga

o‘rnatamiz. ArcGIS Desktop Geografik axborotni yaratish, tahlil qilish, boshqarish va nashr etish uchun GIS mutaxassislari uchun ArcGIS platformasining asosiy komponentidir. ArcGIS Desktop sizga xaritalar yaratish, fazoviy tahlillarni amalga oshirish va ma’lumotlaringizni boshqarish imkonini beradi. ArcGIS Desktop bir nechta ma’lumotlar formatlari bilan ishlash vositalarini, shuningdek, fazoviy geometriyalarini, tendentsiyalarni va yashirin aloqalarni aniqlash uchun kuchli tahliliy vositalar va ish oqimlarini o‘z ichiga oladi (18). Bu dasturni o‘rnatib bo‘lganimizdan so‘ng excel dasturida yig‘gan ma’lumotlarimizani ochib olamiz. Excel ma’lumotlarini namuna sifatida Bo‘stonliq tumani uchun https://t.me/Geomatica_TUACE/10 linki orqali olishingiz mumkin.



2.9-rasm. ArcMap dasturida OSMni yoqish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

ArcMap dasturi yoqilganidan so‘ng, dunyo xaritasini yoqib olamiz. Chunki biz yaratgan excel dasturidagi nuqtalar koordinatasi bo‘yicha to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tushganini tekshirishda kerak bo‘ladi. Dunyo xaritasini yoqish 2.9-rasmda ko‘rsatilgan. Keyin esa koordinatalar tizimini o‘zgartirish kerak bo‘ladi. Buning uchun qatlam parametrlariga kiramiz (2.10-rasm, 1-2), “Coordinate System” bo‘limiga o‘tamiz va u yerdan “Projected Coordinate Systems → UTM → WGS 1984 → Northern Hemisphere

→ WGS 1984 UTM Zone 42N” koordinatasi tanlanadi (2.10-rasm, 3). Kerakli koordinata topilganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi (2.10-rasm, 4)



2.10-rasm. ArcMap dasturida koordinatalar tizimini o‘zgartirish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Endi navbat SASPlanet dasturidan olingan nuqtalarni ArcMap dasturida ochishdan iborat. Buning uchun ArcMap dasturida “Add” tugmasi bosiladi (2.11-rasm, 1). Hosil bo‘lgan oyna orqali excel dasturida saqlangan koordinatalar jadvalini qidirib topamiz (2.11-rasm, 2) va “Add” tugmasini bosamiz (2.11-rasm, 3).



2.11-rasm. Excel ma’lumotlarini ArcMap dasturiga qo‘shish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Excel jadvalini qo‘shganimizdan so‘ng, ma’lumotlar jadval ko‘rinishida tushadi. Jadvalni nuqtali qatlam ko‘rinishiga import qilib olishimiza va nuqtalar berilgan koordinatalari bo‘yicha joyiga tushishi kerak bo‘ladi.



2.12-rasm. Jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni nuqtali qatlam ko‘rinishiga o‘zgartirish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

SASPlanet dasturida yaratilgan ma’lumotlarimiz nuqtali qatlam ko‘rinishiga kelganidan so‘ng, u nuqtalar orqali balandliklar yuzasini yaratib olamiz. Buning uchun ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Interpolation → Kriging instrumentini tanlaymiz (2.13-rasm).



2.13-rasm. Kriging instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

“Kriging” instrumenti bosganimizdan so‘ng, “Kriging” oynasi ochiladi. 2.13-rasm 4-raqamda ko‘rsatilgan joyga nuqtali qatlamni tanlaymiz, 2.13-rasm 5-raqamda ko‘rsatilgan joyga esa jadvaldagi otmetkasini bildiradigan ustun tanlanadi va saqlash manzili kiritiladi (2.13-rasm, 6). Shu amallarni bajarib bo‘linganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi (2.13-rasm, 7). Yaratilgan balandlik yuzasi to‘rtburchak shaklda bo‘ladi. Bu esa xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin, sababi obyektimizdan qanchalik uzoqlashgan sari aniqlik kamayib boradi. Shuning uchun “Clip” instrumentini ishlatib Bo‘stonliq chegarasi bo‘ylab rastr ma’lumotimizani kesib olamiz. Birinchi navbatda 2.2-bo‘limda berilgan tumanlarning shp faylini ochib olamiz va u yerdan Bo‘stonliq tumanini alohida qilib ajratamiz (2.14-rasm).



2.14-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tumanlari shp fayl ichidan Bo‘stonliq tumanini alohida qilib ajratib olish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Bo‘stonliq tumani alohida shp fayl ko‘rinishiga ega bo‘lganidan so‘ng, ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Raster Processing → Clip instrumentini tanlaymiz (2.15-rasm). “Clip” oynasi ochiladi va u yerdan “Input Raster” qatoriga balandlik yuzasini tanlaymiz, “Output Extent (optional)” qatoriga esa Bo‘stonliq tumanining shp faylini tanlaymiz. “Use Input Features for Clipping Geometry (optional)” va “Maintain Clipping Extent (optional)” belgi qo‘yamiz (2.15-rasm, 8). 2.15-rasm 7-raqamda ko‘rsatilgan joyga esa saqlash manzili kiritiladi. Barcha amallar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasini bosamiz va balandliklar yuzasining geometriyasi Bo‘stonliq tumani shaklida paydo bo‘ladi.



2.15-rasm. Clip instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Kerakmas bo‘lgan qatlamlarni o‘chirib tashlaymiz. Bular balandlik yuzasining to‘rtburchak shakli, nuqtali qatlam va excel jadvali. Bo‘stonliq tumani shakli bo‘yicha qolgan balandlik yuzasiga asoslanib gorizontallar yaratamiz. Buning uchun ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Surface → Contour instrumenti tanlanadi (2.16-rasm). “Contour” oynasi ochilganidan so‘ng “Input raster” qatoriga balandlik yuzasi kiritiladi (2.16-rasm, 4), “Output feature class” qatoriga esa saqlash manzili yoziladi (2.16-rasm, 5), “Contour interval” qatoriga esa gorizontallar orasidagi qadam kiritiladi (2.16-rasm, 6). Shu bilan “OK” tugmasi bosiladi va chiziqli gorizontallar qatlami paydo bo‘ladi (2.16-rasm, 7). Hosil bo‘lgan gorizontallarni shp faylga yoki autocad dasturiga export qilish mumkin.



2.16-rasm. Contour instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

ArcMap dasturida amaliy ishlar nihoyasiga yetganidan so‘ng, endi navbat rastr ma’lumotimizani ArcScene dasturida 3D ko‘rinishida ko‘rsatishdan iborat. ArcScene dasturini ishga tushuramiz. Bo‘stonliq tumani shaklidagi balandlik yuzasini ArcScene dasturida ochib olamiz (2.17-rasm).



2.17-rasm. ArcScene dasturida qatlamlarni ochish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



2.18-rasm. ArcScene dasturida rastr ma’lumotlarini 3D ko‘rinishga ko‘tarish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Rastr ma’lumotlarini 3D ko‘rinishga ko‘tarish uchun rastr parametrlariga kiramiz (2.18-rasm, 1-2) va rastr parametrlari oynasi ochiladi. Shu oynada “Base Heights” bo‘limiga o‘tamiz (2.18-rasm, 3) va “Floating on a custom surface” ga belgi qo‘yamiz (2.18-rasm, 4). Barcha ishlar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasini bosamiz. Ko‘tarilgan 3D modelni to‘g‘irlash ishlarini amalga oshiramiz. Uni vertikal bo‘rttirish ya’ni vertilal ko‘rinishi visual yaxshi bo‘lishi uchun sahna qatlamlari parametrlariga kiramiz (2.19-rasm, 1-2). Keyin esa sahna parametrlari oynasi ochiladi va u yerda “Calculate From Extent” tugmasiga bosiladi. Shundan so‘ng obyektimiz 3D ko‘rinishi yaxshilanadi. Endi rastr ma’lumotiga ranglar tasvirini o‘zgartiramiz. Ranglar tasviri boshida chaqirib olganimizda oq-qora ranglarda tasvirlangan bo‘ladi. Biz esa unga  ranglarni beramiz. 3D modelimiza ko‘rinishi sifatli bo‘ladi. Modelga yaqinlashtirganimizda ranglar to‘rtburchak shaklda ajralib turganini ko‘ramiz. Biz esa unga uzluksiz ranglar tasvirida ko‘rsatishimiza kerak. Buning uchun qatlam

parametrlariga kiramiz va Display bo‘limida “Resample during display using” qatorida “Bilinear Interpolation (for continuous data)” tanlanadi (2.20-rasm).



2.19-rasm. Vertikal bo‘rttirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



2.20-rasm. Ranglar tasvirini uzluksiz tasvirga keltirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Natijada biz Bo‘stonliq tumanining 3D relyef modelini SASPlanet dasturidan olingan ma’lumotlar asosida ArcGIS Desktop dasturida yaratilishini o‘rganib chiqdik va natija 2.21-rasmda keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma’lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2015 yil.
2. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: “Iqtisod moliya”, 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2008 yil.
7. I. Masser. GIS Worlds: Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005



2.21-rasm. Bo'stonliq tumanining 3D relyef xaritasi (rasm muallif tomonidan ArcGIS Desktop dasturida tayyorlandi)

4-5-amaliy mashg‘ulot: Google Earth Pro dasturi ma’lumotlari asosida geoaxborot tizimi dasturi yordamida hududning 3D relyefini yaratish.

Ishdan maqsad: Hududning 3D relyefini yasash. Google Earth Pro dasturini o‘rganish. Ochiq kodli saytlardan ma’lumotlar olish.

Masalaning qo‘yilishi: Hududning 3D relyefini yasashda foydalaniladigan usullar ichida eng maqbulini tanlash.

Bajarish vaqti: 60 minut

1-bosqich. Google Earth Pro dasturi imkoniyatlari

Google Earth Pro kuchli, bepul geografik dastur bo‘lib, u sizga Yerni hech qachon tasavvur qilmaganingizdek kashf qilish imkonini beradi. Google Earthning takomillashtirilgan versiyasi sizni xarita ma’lumotlari va yuqori sifatli sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yaratilgan virtual globusga cho‘mdiradi. Cheksiz darajadagi tafsilotlar va hayratlanarli 3D effekti bilan butun sayyora sizning qo‘lingizda bo‘lib, siz sayohat qilishingiz, sayyoramizning deyarli yetib bo‘lmaydigan burchaklarini kashf qilishingiz, masofalarni hisoblashingiz yoki shunchaki sayyoradagi vodiylar, tog‘lar, binolar va hatto vulqonlarga qoyil qolishingiz mumkin. Shuning uchun, bu bizning uyimizning eng chekka burchaklarini bilish va kashf etishga intilayotgan barcha qiziquvchanlar uchun muhim dasturdir.

Google Earth Pro bilan nima qila olasiz?

Google Earth Pro-da sayyoramiz haqida bir oz ko‘proq ma’lumot olishni xohlaydigan qiziquvchan onglarni quvontiradigan son-sanoqsiz vositalar mavjud. Google geografik dasturiy ta’minotining asosiy xususiyatlari:

Rasmlar va xaritalarni ko‘rish - Google Earth Pro sizga sayyoramizning istalgan burchagini batafsil o‘rganish va kashf qilish imkonini beradi. Bu yerdan siz son-sanoqsiz sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, aerofotosuratlar va 2D va 3D xaritalarga kirishingiz mumkin.

Intuitiv interfeys - boshqa Mountain View mahsulotlari singari, Google Earth Pro ham aniq va sodda interfeysga ega. Bu yerdan osongina navigatsiya qilishingiz, kattalashtirishingiz va sayyorani o‘rganishingiz mumkin.

Tarixiy rasmlar - Agar siz tarixga qiziqsangiz, Google Earth Pro-da sayyoradagi har bir zonaning o‘zgarishi va evolyutsiyasini ko‘rsatadigan rasmlar kutubxonasi mavjudligini bilish sizni xursand qiladi.

O‘lchov asboblari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilovadan sayyoradagi istalgan zona yoki binoning maydoni, radiusi va uzunligini osongina tahlil qiling.

3D tasvirlar - Ilovaning ajoyib 3D effektlari va relyefi tufayli sayyorani hech qachon bo‘lmaganidek his eting.

Geografik axborot tizimi (GIS) - Google Earth Pro geografik ma’lumotlarni boshqa ilovalardan import qilish, axborot qatlamlarini qo‘shish va geografik hududlarni tahlil qilish imkonini beruvchi rivojlangan GIS imkoniyatlariga ega.

Maxsus sayohatlar va videolar yarating - Agar siz sayohatni rejalashtirmoqchi bo‘lsangiz, Google Earth Pro sizga interaktiv sayohatlar yaratish, shuningdek, ilovadan yuklab olishingiz mumkin bo‘lgan qiziqarli videolarni yaratish imkonini berishini bilishdan mamnun bo‘lasiz.

Geofazoviy ma’lumotlarni import va eksport qilish – Google Earth Pro geofazoviy ma’lumotlarni KMZ yoki KML formatlarida import va eksport qilish imkoniyatini taklif etadi, bu esa onlayn hamkorlikni osonlashtiradi.

Multiplatforma - Google Earth Pro Windows, Linux yoki MacOS operatsion tizimlarida ishlaydigan kompyuterlar bilan mos keladi. (19)

3.1-rasm. Google Earth Pro dasturi (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)

2-bosqich. Google Earth Pro dasturida hududning 3D relyefini yaratish uchun ma’lumotlar olish texnologiyasi

Google Earth Pro dasturida 3D relyef modelini yaratish uchun ma’lumotlar olish quyidagicha amalga oshiriladi. Birinchi navbatda Google Earth Pro dasturini ishga tushuramiz. Google Earth Pro dasturi ishga tushgandan so‘ng “Файл → Импорт...” tugmasi bosiladi (3.2-rasm, 1-2). Google Earth Pro dasturining afzalligi shundaki, bu dastur shp fayl bilan integratsiya qiladi. Demak bu dastur geoaxborot tizimiga bog‘lanish imkonini beradi. Import oynasi ochilganidan so‘ng 3.2-rasm 3-raqamda ko‘rsatilgan joyda “ESRI Shape (*.shp)” topib belgilanadi. So‘ngra 2-BOBda yaratgan Bo‘stonliq tumanining shp faylini qidirib topamiz va uni belgilab “Открыть” tugmasi bosiladi.



3.2-rasm. Google Earth Pro dasturida shp faylini ochish (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)

Google Earth Pro dasturida Bo‘stonliq tumanining maydoni ko‘rinadi. Shu maydon bo‘ylab chiziqli qatlam yaratib olamiz (3.3-rasm). Chiziqli qatlam yaratilishi sababi shundaki, chiziqli qatlam yaratilayotganda bud astur har bir singan joyga nuqta yaratib boradi. Bu esa bizga nuqtali qatlam yaratishdan afzalroq va ish tezroq bajariladi.



3.3-rasm. Chiziqli qatlam yaratish (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)



3.4-rasm. Chiziqli qatlam yaratilish jarayoni va qatlamni saqlash (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)

Chiziqli qatlam butun Bo‘stonliq tumani bo‘yicha chizib chiqilganidan so‘ng, qatlamni saqlaymiz (3.4-rasm, 2). Qatlam nomini 3.4-rasm 1-raqamda ko‘rsatilgan joyga yoziladi. Yaratilgan chiziqli qatlamni KML formatida saqlaymiz. Yaratilgan chiziqli qatlam bilan import qilingan Bo‘stinliq tumani maydonli qatlamlarni bitta popkaga joylashtiramiz.



3.5-rasm. Chiziqli qatlam bilan import qilingan Bo‘stinliq tumani maydonli qatlamlarni bitta popkaga joylashtirish (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)

Agar boshqa joyda bo‘lsa, nusxa ko‘chiriladi va qo‘yish tugmasini “boundary-polygon” nomli popkaga tushuriladi. Bu popka Bo‘stonliq tumanining shp faylini import qilish jarayonida paydo bo‘lgan. Endi shu popkaga sichqonchaning o‘ng tugmasi bosiladi va “Сохранить местоположение как…” bo‘limi bosiladi (3.6-rasm, 2). Saqlash oynasi ochiladi. U yerda ma’lumotlarni ikkita formatda saqlash mumkin, KMZ va KML formatlarida. KML - bu Google Earth Pro dasturida uch o‘lchovli geofazoviy ma’lumotlarni taqdim etish uchun XML-ga asoslangan belgilash tili. KMZ (KML Zipped) fayli Google Earth kabi GAT ilovalarida ko‘rish mumkin bo‘lgan geofazoviy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ziplangan KML faylidir. 3.6-rasmda ko‘rsatilgan saqlash oynasida saqlash manzili va KML formatini tanlab “Сохранить” tugmasi bosiladi. Shu bilan Google Earth Pro dasturida ishlar nihoyasiga yetdi. Endi navbat shu KML formatiga ishlov berishdan iborat.



3.6-rasm. Google Earth Pro dasturida yaratilgan ma’lumotlarni KML formatiga export qilish (rasm muallif tomonidan Google Earth Pro dasturida tayyorlandi)

3-bosqich. Google Earth Pro dasturida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash

3.2 bo‘limda biz Google Earth Pro dasturidan foydalanib hudud bo‘yicha nuqtalar yaratdik, ya’ni chiziqli qatlam asosida va u ma’lumotlarni KML formatida saqladik. Biz KML formatidagi ma’lumotlardagi har bir nuqtaga otmetka berishimiz kerak bo‘ladi. Buning uchun maxsus sayt mavjud bo‘lib, kml formatidagi ma’lumotlarni gpx yoki txt formatlariga konvertatsiya qiladi va har nuqta koordinatasiga otmetkasini qo‘shadi.

Bu saytga https://www.gpsvisualizer.com/elevation link orqali kirishingiz mumkin. Bu saytning baza bir necha manbalarga bog‘liq bo‘lib, bizning diyorimiz O‘zbekiston Respublikasida SRTM1 va SRTM3 larni tashkil qiladi. NASA ning SRTM1 (Space Shuttle Radar Topography Mission – Shuttle radar topografiyasi missiyasi) ma’lumotlari 1 yoy soniya (taxminan 30 metr) ruxsatga ega.

Biz yaratgan Bo‘stonliq tumanining kml formatidagi ma’lumotini shu saytga joylaymiz va gpx formatiga otmetkalarini qo‘shgan holda konvertatsiyalaymiz.



3.7-rasm. www.gpsvisualizer.com saytida kml formatini gpx formatiga konvertatsiya qilish (rasm muallif tomonidan www.gpsvisualizer.com sayti orqali tayyorlandi)

Konvertatsiya va Otmetkani qo‘shish tugmasini bosganimizdan so‘ng, sayt konvertatsiya ishini bajarishi boshlaydi (3.7-rasm, 3).



3.8-rasm. www.gpsvisualizer.com saytida konvertatsiya qilingan ma’lumotlarni yuklab olish (rasm muallif tomonidan www.gpsvisualizer.com sayti orqali tayyorlandi)

Konvertatsiya jarayoni tugaganidan so‘ng, sayt avtomatik tarzda boshqa oynaga o‘tadi va u yerdan gpx formatidagi ma’lumotni yuklab olish tugmasi mavjud bo‘ladi (3.8-rasmda ko‘rsatish belgi bilan ko‘rsatilgan). Gpx formatidagi ma’lumotni yuklab bo‘lganimizdan so‘ng bu saytdagi ishlar nihoyasiga yetadi va ArcGIS Desktop dasturi modullaridan bo‘lgan ArcMap dasturida ishlarni davom ettiramiz. Bu saytning imkoniyatlaridan yana biri gpx formatidan tashqari txt formatida ham konvertatsiya qilish mumkin. Buning uchun 3.7-rasm 3-raqam bilan ko‘rsatilgan joyning pastrog‘ida “Output” qatoridan “Plain text” tanlanadi va “Convert & add elevation” (3.7-rasm, 3) tugmasi bosiladi. Shunda kml formatidagi ma’lumotimiz txt formatiga otmetkasi qo‘shilgan holda konvertatsiya bo‘ladi. 3.2 – bo‘lim va 3.3 – bo‘limda bajarilgan ishlar natijasini https://t.me/Geomatica_TUACE/11 linki orqali olishingiz mumkin.

4-bosqich. Geoaxborot tizimi dasturlari yordamida Google Earth Pro dasturidan olingan ma’lumotlar asosida hududning 3D relyefini yaratish

Geoaxborot tizimi dasturlaridan ArcGIS Desktop dasturidan foydalangan holda hududning 3D relyefini yaratamiz. 3.3 – bo‘limda bajarilgan ishlar natijasiga ko‘ra bizda gpx formatidagi ma’lumot mavjud. Shu formatdagi ma’lumotni ArcMap dasturiga import

qilamiz. Buning uchun “ArxToolbox → Conversion Tools → From GPS → GPX To Features” instrumenti tanlanadi (3.9-rasm, 2). Import qilish oynasi ochiladi va “Input GPX File” qatoriga gpx formatidagi ma’lumotni kiritamiz, “Output Feature class” qatoriga esa saqlash manzili kiritiladi (3.9-rasm). “Output Feature class” qatorida qatlam nuqtali shaklda bo‘ladi. Bu esa har nuqta koordinatasi bo‘yicha joyiga tushadi va har bir nuqtaning otmetkasi mavjud bo‘ladi. Import qilingan nuqtalar joyiga tushganligini tekshirish maqsadida dunyo xaritasini yoqamiz. 3.10-rasmda dunyo xaritasini qo‘shish batafsil ko‘rsatilgan.



3.9-rasm. gpx formatini ArcMap dasturiga import qilish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)



3.10-rasm. ArcMap dasturiga dunyo xaritasini qo‘shish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Yaratilgan nuqtali qatlam asosida balandlik yuzasini yaratamiz. “ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Interpolation → Kriging” instrumentini tanlaymiz (3.11-rasm, 3). “Kriging” oynasi ochiladi. “Input point features” qatoriga gpx formatidan import qilingan nuqtali qatlam kiritiladi (3.11-rasm, 4). “Z value field” qatoriga esa otmetkasi mavjud attribute ustuni kiritiladi, bunda otmetkasi mavjud ustun “Elevation” hisoblanadi, shu sababli uni belgilaymiz (3.11-rasm, 5). “Output surface raster” qatoriga rastr nomi va saqlash manzili kiritiladi (3.11-rasm, 6).



3.11-rasm. “Kriging” instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Rastr to‘rtburchak shaklida yaratildi. Bu esa oldingi boblarda aytilganidek nuqtali qatlam mavjud bo‘lmagan joyda xatoliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli Bo‘stonliq chegarasi asosida rastr ma’lumotini qirqamiza. Birinchi navbatda Bo‘stonliq tumanining shp faylini ArcMap dasturiga qo‘shamiz. Qo‘shilganidan so‘ng rastr ma’lumotini qirqib olamiz. Buning uchun “Data Management Tools → Raster → Raster Processing → Clip” instrumenti orqali bajariladi (3.12-rasm, 4). “Input Raster” qatoriga nuqtali qatlam asosida yaratilgan balandlik yuzasi rastr ma’lumotini tanlaymiz (3.12-rasm, 5). “Output Extend (optional)” qatoriga Bo‘stonliq tumanining shp fayli tanlanadi (3.12-rasm, 6). “Use Input Features for Clipping Geometry (optional)” va “Maintain Clipping Extent (optional)” qatorlariga belgi qo‘yiladi (3.12-rasm, 7). “Output Raster Dataset” qatoriga esa yaratilayotgan rastr nomi va saqlash manzili yoziladi (3.12-rasm, 8). Barchasini to‘g‘ri kiritilganidan so‘ng “OK” tugmasini bosamiz.



3.12-rasm. “Clip” instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Hosil bo‘lgan Bo‘stonliq tumani shaklidagi rastr ma’lumotini va Bo‘stonliq tumanining shp faylini qoldirib qolgan qatlam va rastrlarni o‘chirib tashlaymiz. Qirqilgan rastr ma’lumoti asosida gorizontal yaratamiz. “ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Surface → Contour” instrumenti tanlab ochamiz va “Input raster” qatoriga qirqilgan rastr ma’lumotini tanlaymiz, “Output feature class” qatoriga esa qatlam nomini va saqlash manzilini kiritamiz, “Contour interval” qatoriga bo‘lsa gorizontal qadamini kiritamiz. Bizning namunamizda 200 kiritilgan (3.13-rasm). Endi navbat rastr ma’lumotini 3D modelini ko‘tarishdan iborat. Bu ishni bajarishda bizga ArcScene dasturi yordamga keladi.



3.13-rasm. Gorizontallarni yaratish instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)



3.14-rasm. ArcScene dasturida rastr ma’lumotlarini qo‘shish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



3.15-rasm. ArcScene dasturida rastr ma’lumotlarini 3D ko‘rinishga ko‘tarish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Rastr ma’lumotlarini 3D ko‘rinishga ko‘tarish uchun rastr parametrlariga kiramiz (3.15-rasm, 1-2) va rastr parametrlari oynasi ochiladi. Shu oynada “Base Heights” bo‘limiga o‘tamiz (3.15-rasm, 3) va “Floating on a custom surface” ga belgi qo‘yamiz (3.15-rasm, 4). Barcha ishlar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasini bosamiz. Ko‘tarilgan 3D modelni to‘g‘irlash ishlarini amalga oshiramiz. Uni vertikal bo‘rttirish ya’ni vertilal ko‘rinishi visual yaxshi bo‘lishi uchun sahna qatlamlari parametrlariga kiramiz (3.16-rasm, 1-2). Keyin esa sahna parametrlari oynasi ochiladi va u yerda “Calculate From Extent” tugmasiga bosiladi. Shundan so‘ng obyektimiz 3D ko‘rinishi yaxshilanadi. Endi rastr ma’lumotiga ranglar tasvirini o‘zgartiramiz. Ranglar tasviri boshida chaqirib olganimizda oq-qora ranglarda tasvirlangan bo‘ladi. Biz esa unga  ranglarni beramiz. 3D modelimiza ko‘rinishi sifatli bo‘ladi. Modelga yaqinlashtirganimizda ranglar to‘rtburchak shaklda ajralib turganini ko‘ramiz. Biz esa unga uzluksiz ranglar tasvirida ko‘rsatishimiza kerak. Buning uchun qatlam parametrlariga kiramiz va Display bo‘limida “Resample during display using” qatorida “Bilinear Interpolation (for continuous data)” tanlanadi (3.17-rasm).



3.16-rasm. Vertikal bo‘rttirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



3.17-rasm. Ranglar tasvirini uzluksiz tasvirga keltirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Natijada biz Bo‘stonliq tumanining 3D relyef modelini Google Earth Pro dasturidan olingan ma’lumotlar asosida ArcGIS Desktop dasturida yaratilishini o‘rganib chiqdik va natija 3.18-rasmda keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.

2. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 y.

3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.

4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.

5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.

6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 y.

7. I. Masser GIS Worlds:Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005.



Bo'stonliq tumanining 3D relyef modeli Google Earth Pro dasturidan olingan ma'lumotlar asosida



0 18 000 36 000 72 000 108 000 144 000 Meters

1:1 250 000

3.18-rasm. Bo'stonliq tumanining 3D relyef modeli Google Earth Pro dasturidan olingan ma'lumotlar asosida

6-7-amaliy mashg‘ulotlar: USGS saytidan yuklangan kosmik suratlar asosida hududning 3D relyefini yaratish

Ishdan maqsad: Hududning 3D relyefini yaratishda ochiq kodli saytlardan foydalanish.

Bajariladigan vaqt: 60 minut

Masalaning qo‘yilishi: Siz Google Earth Pro dasturi yordamida olingan ma’lumotlarni ArcMap dasturida qayta ishlab hududning 3D relyefini yaratdingiz. Endi bu topshiriqda hududning 3D relyefini yaratish hisoblanadi, lekin ma’lumotlar Google Earth Pro dasturidan emas, balki ochiq kodli saytlardan olinadi, ya’ni SRTM kartalari. Biz bilamizki yerni sun’iy yo‘ldoshlari mavjud bo‘lib, ular tomonidan har kuni kuzatuv ishlari olib boriladi. 2000 yilda radiolakatsion suratga olish usuli bilan yer yuzini sun’iy yo‘ldosh bilan amalga oshirilgan. Siz quyidagi ochiq kodli saytdan foydalanishni o‘rganasiz: https://earthexplorer.usgs.gov/

1-bosqich. USGS sayti haqida

4.1-rasm. Klarens King - Geologiya xizmati asoschisi (manba https://ru.wikipedia.org/wiki/Геологическая_служба_США)

Amerika Qo‘shma Shtatlari Geologiya xizmati (angl. United States Geological Survey, qisqacha USGS) — Amerika geologiyasi va yer haqidagi fanlarni o‘rganishga ixtisoslashgan hukumat tadqiqot tashkiloti (20).

1879 yilda Kongress akti bilan tashkil etilgan USGS jamiyatning doimiy o‘zgaruvchan ehtiyojlarini aks ettiruvchi va ularga javob beradigan o‘zgaruvchan dunyo uchun ilm-fanni taqdim etadi. Ichki ishlar departamentining ilmiy bo‘limi sifatida USGS atrof-muhit, resurslar va jamoat xavfsizligi masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan yer, suv, biologiya va xaritalash ma’lumotlari va tajribalarini taqdim etadi.

USGS Yer tizimining joriy va rivojlanayotgan o‘zaro ta’sirini kuzatadi, tahlil qiladi, prognoz qiladi, qaror qabul qiluvchilar uchun mos bo‘lgan miqyosda va vaqt oralig‘ida harakat qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

USGS ekotizimlar, yerdan foydalanish, energiya va mineral resurslar, tabiiy ofatlar, suvdan foydalanish va mavjudligi haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlarning

asosiy federal manbai bo‘lib, jamoatchilikka Yer xususiyatlarining yangilangan xaritalari va tasvirlarini taqdim etishga mo‘ljallangan hukumat tashkiloti (21).

Bosh ofis Virjiniya shtatining Reston shahrida joylashgan. Ikki yetakchi bo‘lim Denver (Kolorado) va Menlo Parkda (Kaliforniya) joylashgan. USGSda 10 mingga yaqin xodim ishlaydi.

Bu sayt ochiq saytlardan bo‘lib, foydalanuvchilar ro‘yxatdan o‘tib kosmik suratlarni yuklab olishi mumkin.

2-bosqich. https://earthexplorer.usgs.gov/ saytiga kirish va ro‘yxatdan o‘tish texnologiyasi

USGS saytida SRTM suratlarini yuklab olish uchun birinchi navbatda saytda ro‘yxatdan o‘tish kerak. https://earthexplorer.usgs.gov/ saytiga kiramiz va sayt interfeysi o‘ng tepa qismida “Login” bo‘limi mavjud bo‘lib, shu bo‘lim orqali ro‘yxatdan o‘tamiz (4.2-rasm).



4.2-rasm. earthexplorer.usgs.gov sayti interfeysi va ro‘yxatdan o‘tish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

“Login” tugmasini bosganimizdan so‘ng, yangi oyna ochiladi. Agar siz oldin bu saytda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsangiz login va parolingizni kiritib tizimga kirishingiz

mumkin. Agar login va parolingiz mavjud bo‘lmasa, “Create New Account” tugmasini bosib yangi akkount ochishingiz kerak bo‘ladi (4.2-rasm, 2).



4.3-rasm. Ro‘yxatdan o‘tish oynasi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Login va parolni yaratib, “Continue” tugmasi bosiladi. Bu sayt sizdan anketa to‘ldirishingizni so‘raydi. Barchasini to‘ldirib, “Continue to Contact Information” tugmasi bosiladi va shaxsga doir ma’lumotlar to‘ldiriladi. U yerda ahamiyatlisi shundaki elektron pochtani ishlaydigan aktiv bo‘lishi kerak. Chunki ro‘yxatdan o‘tishni tasdiqlash uchun pochtaga SMS xabari keladi.

4.4-rasmdagi ko‘rsatilganidek amallarni bajarib bo‘lganizdan keyin, shaxsga taaluqli bo‘lgan ma’lumotlar oynasi ochiladi va u yerda shaxsga taaluqli bo‘lgan ma’lumotlar to‘ldiriladi (familiyasi, ismi, tashkilot nomi, manzil, elektron pochta), 4.5-rasmda batafsil ko‘rsatilgan.



4.4-rasm. Sayt anketasini to‘ldirish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)



4.5-rasm. Shaxsga taaluqli ma’lumotlarni kiritish oynasi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Barcha ma’lumotlar to‘liq kiritib bo‘lgandan so‘ng “Save Contact Information” tugmasi bosiladi (4.5-rasmda keltirilgan) va keying bosqichga o‘tiladi. Keyingi bosqich kiritilgan ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish uchun xizmat qiladi. Ochilgan oynada yana bir bor kiritilgan ma’lumotlar to‘g‘riligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng “Submit Registration” tugmasini bosamiz (4.6-rasm). “Submit Registration” tugmasini bosilganidan so‘ng, “Registration Submitted” oynasi ochiladi (4.7-rasm). Bu oyna

ochilganidan so‘ng anketada to‘ldirilgan elektron pochtaga “USGS / EROS Customer Services” nomidan birozdan so‘ng xat keladi. Sizning pochtangizga shu manzildan xabar kelganidan keyin shu xabarni ochib, ro‘yxatdan o‘tishni tasdiqlanadi.



4.6-rasm. Ma’lumotlarni to‘g‘riligini tekshirish oynasi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)



4.7-rasm. USGS saytida elektron pochtaga tasdiqlash xabari yuborilganligini bildiruvchi oyna (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)



4.8-rasm. Elektron pochtaga “USGS / EROS Customer Services” nomidan kelgan ro‘yxatdan o‘tishni tasdiqlash xabari (rasm muallif tomonidan e-mail orqali tayyorlandi)



4.9-rasm. USGS saytida ro‘yxatdan o‘tganligini bildiruvchi xabar (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Ro‘yxatdan o‘tganligini bildiruvchi xabardan keyin login va parolni kiritib tizimga kiriladi. 4.10-rasm 1-raqamda ko‘rsatilgan qismiga login kiritiladi, 2-raqamda ko‘rsatilgan qismiga esa parol kiritiladi. Shu bilan USGS saytida ro‘yxatdan o‘tish qismi nihoyasiga yetdi.

4.10-rasm. USGS saytida login va parolni kiritish oynasi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

3-bosqich. SRTM suratlarini yuklab olish texnologiyasi

Shuttle Radar topografiyasi missiyasi yoki SRTM - bu Yer yuzasini radar topografik tasviridan foydalangan holda raqamli balandlik modelini yaratish bo‘yicha xalqaro tadqiqot loyihasi. Olingan raqamli model Yerning 80% yerini (56° S dan 60° N gacha) qamrab olgan va 2009 yil 29 iyunda ASTER GDEM chiqarilgunga qadar eng to‘liq bo‘lgan. SRTM 2000 yil fevral oyida 11 kunlik STS-99 missiyasi davomida Endeavour kosmik kemasi tomonidan suratga olingan maxsus radar tizimidan iborat edi. So‘rov orqali olingan ma’lumotlar ilmiy va fuqarolik ilovalarida foydalanish uchun mo‘ljallangan (ammo, birinchi navbatda, harbiy manfaatlar uchun) (22).

USGS saytidan ro‘yxatdan o‘tib bo‘lganimizdan so‘ng SRTM suratlarini yuklab olishga o‘tamiz. Ochiq turgan dunyo xaritasidan O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatini qidirib olamiz. Agar o‘rganilayotgan hudud qayerdaligini bilsangiz,

sichqonchani chap tugmasini bosish orqali o‘rganilayotgan obyekt atrofiga metkalar qo‘yib chiqiladi. Faqat shuni inobatga olish kerakki, bu metkalar soni 30tadan oshmasligi kerak. Agar o‘rganilayotgan hududning qayerda joylashganini bilmasangiz, unda kml, kmz yoki shp fayllaridan foydalanishingiz mumkin. Biroq kml, kmz va shp fayllar siniq chiziqlari ko‘p bo‘lganligi uchun, bu esa har bir singan chiziqda nuqta ya’ni metka qo‘yadi va metkalar soni 30 tadan oshib ketadi. Shuning uchun kml, kmz yoki shp fayllariga ishlov beriladi ularning qirralari sonini kamaytiriladi. Bu borada biz SASPlanet dasturidan foydalanamiz, chunki bizda hududimizning kml fayli mavjud. Agar kml fayli mavjud bo‘lmasa va aksincha shp fayli mavjud bo‘lsa, u holda Google Earth Pro dasturidan foydalanishingizni maslahat beraman. SASPlanet dasturini ishga tushuramiz. Bo‘stonliq tumanining kml faylini SASPlanet dasturiga import qilib olamiz (4.11-rasm).



4.11-rasm. SASPlanet dasturida kml fayliga ishlov berish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

Import qilganimizdan so‘ng, o‘rganilayotgan hududning chegarasi ko‘rinadi shu chegara asosida tashqarisidan maydonli qatlam yaratamiz (4.12-rasm). Faqat bu maydonli qatlam siniq chiziqlar soni kam bo‘lishini ta’minlashimiz kerak.



4.12-rasm. SASPlanet dasturida maydonli qatlam yaratish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

Maydonli qatlam yaratib bo‘linganidan so‘ng, u maydonli qatlamni kml formatiga export qilib olamiz. Bunda “Управление метками” tugmasi bosiladi (4.13-rasm, 1). Metkalarni boshqarish oynasi ochilganidan so‘ng 4.12-rasm 4-raqamda ko‘rsatilgan joyda qaysi bo‘limga va qanday nom bilan saqlangan bo‘lsa, 4.13-rasm 2-raqamda ko‘rsatilgan joyda qidirib topiladi va sichqoncha o‘ng tugmasi bosilib orasidan “Экспортировать метку” qatori topib bosiladi (4.13-rasm, 3). Export oynasi ochilganida fayl nomi, formati va saqlash manzili kiritiladi va “Сохранить” tugmasi bosiladi. Shu bilan bizda siniq chiziqlar soni kam bo‘lgan o‘rganilayotgan hudud kml fayli paydo bo‘ladi. Bu kml faylini USGS saytiga import qilishimiz mumkin bo‘ladi.



4.13-rasm. SASPlanet dasturida maydonli qatlamni kml formatiga export qilish (rasm muallif tomonidan SASPlanet dasturida tayyorlandi)

USGS saytida ma’lumotlar olish uchun saytga qo‘yiladigan 4 talabnomasi mavjud. Ularni bir chekkadan o‘rganib chiqamiz.



4.14-rasm. USGS saytida kerakli ma’lumotlar olish uchun saytga qo‘yiladigan talablar (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

“Search Criteria” – bu bo‘limda kerakli hududni topish va belgilash uchun ishlatiladi. USGS sayti KML va shapefile formatlari bilan integratsiyalana oladi va shu bo‘limda ularni chaqirib olish mumkin. “Search Criteria” bo‘limida obyektlarning nomi, koordinatalari bilan qidirish va hatto poligon yaratish mumkin. Sun’iy yo‘ldosh suratga olgan sanani ko‘rsatish mumkin. Ular ichida suratga olingan oylarni ham kiritish imkoniga ega. Ob-havoning bulutli foizini kiritish mumkin. Xullas bu bo‘lim suratga olish parametrlarini kiritishga mo‘ljallangan (4.15-rasm).



4.15-rasm. “Search Criteria” bo‘limi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

“Data Sets” – bu ma’lumotlar to‘plami bo‘lib, qanday ma’lumotlar olishni belgilash uchun mo‘ljallangan. U yerda Landsat sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari,

aerofotosyomka, SRTM va boshqa masofadan zondlash ma’lumotlari keltirilgan (4.16-rasm).



4.16-rasm. “Data Sets” bo‘limi (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Keyingi ikkita bo‘lim qachonki qidiruv parametrlarini va ma’lumotlar to‘plamini kiritib natija bosilgandan so‘ng yoqiladi. “Additional Criteria” – bu qo‘shimcha mezonlarni ya’ni masofadan zondlash texnikasiga taaluqli bo‘lgan parametrlarni kiritish bo‘limi. “Results” – esa barcha berilgan talablarga mos holda natijani ko‘rsatish va yuklab olish qismi.

USGS saytida kerakli hududni topish va uni belgilashda bir qancha usullari mavjud bo‘lib, ularni ko‘rib chiqamiz.

1. Vizual qidirish orqali. Bunda berilgan hududni topish dunyo xaritasidan foydalanib, berilgan hudud qayerda joylashganini qidirib topiladi. Bunda sichqonchani chap tugmasini bosib turgan holda joy ko‘chiriladi, sichqonchaning rolikini o‘ynatgan holda masshtab o‘zgartiriladi. Berilgan hudud dunyo xaritasida topilgandan so‘ng

sichqonchaning chap tugmasi bosiladi va bosilgan joyda nuqtalar paydo bo‘ladi. Bu nuqtalar bizga poligonni chizib beradi va shu poligonda kerakli ma’lumotlar qidiriladi.

2. KML yoki Shapefile formatlaridagi fayllar yordamida. Bu usulda kml yoki shapefile formatlaridagi fayllar kerak bo‘ladi. “Search Criteria → KML/Shapefile Upload → Select File” amali bajariladi. KML yoki Shapefile tanlanadi va “Открыть” tugmasi bosiladi (4.17-rasm). USGS saytida polygon egriligi 30 tadan oshishi kerak emas, shuning uchun kml va shapefile formatlaridagi poligon egriligi 30 tadan oshsa uni ochmaydi.



4.17-rasm. KML formatini USGS saytiga chaqirib olish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

3. Obyekt nomini kiritish orqali qidiruv. Bu usulda obyekt nomi kiritiladi va belgilangan hududda avtomatik tarzda nuqta paydo bo‘ladi. Keyin shu nuqtaga asoslangan holda poligon chiziladi. “Search Criteria → Geocoder → Feature (GNIS) → World Features → qidiruv parametrlari (Davlat, xususiyat klassi, xususiyat turi) → Show” amalini bajarib obyekt nomi orqali qidirish mumkin (4.18-rasm).

4.18-rasm. Obyekt nomi bilan qidirish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

4. Mavjud koordinatalari yordamida kerakli obyektlarni qidirish. Bu usulni bajarishda WGS-84 tizimidagi koordinatalar kerak bo‘ladi. Bu usulni biz amaliy ishda foydalanamiz, chunki variantlarda WGS-84 tizimiga kiruvchi koordinatalar keltirilgan. Bu koordinatalar obyektning bir nuqtasinigina ko‘rsatadi. Shu nuqtaga asoslanib obyekt atrofida poligon yaratiladi. “Search Criteria → Polygon → Add Coordinate” amali bajariladi (4.19-rasm).



4.19-rasm. Berilgan hududni koordinatalari yordamida qidirish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Biz 2-usuldan foydalanamiz. Chunki bizda kml formatidagi faylimiz mavjud. USGS saytiga chaqirib olganimizdan so‘ng, “Data Sets” bo‘limiga o‘tib, “Digital Elevation → SRTM → SRTM 1 Arc-Second Global” sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini tanlaymiz va “Result” tugmasini bosamiz.



4.20-rasm. SRTM suratlarini USGS saytida qidirish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

“result tugmasini bosganimizdan so‘ng sayt avtomatik tarzda “Result” bo‘limiga o‘tkazadi. U yerda hududga kirgan barcha SRTM suratlarini ko‘rsatadi. Qadamchani “ ” belgilasak bizga surat qayerda joylashganini rangli tasvir orqali ko‘rsatadi. Surat belgisidagi tasvirni belgilasak “ ”, dunyo xaritasida SRTM suratining tasviri paydo bo‘ladi. U yerda hosil bo‘lgan barcha SRTM suratlarini yuklab olamiz. “Download options” tugmasini bosish orqali yuklash parametrlari oynasi ochiladi (4.21-rasm, 1) va “GeoTIFF 1 Arc-second” fayli yuklanadi (4.21-rasm, 2).



4.21-rasm. SRTM suratlarini yuklab olish (rasm muallif tomonidan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali tayyorlandi)

Hamma yuklangan SRTM suratlarini bitta popkaga joylashtiramiz. Shu bilan earthexplorer.usgs.gov sayti orqali SRTM suratlarini yuklab olish ishlari tugaydi. Endi navbat geoaxborot tizimi dasturlarida qayta ishlab hududning 3D relyef modelini qurishdan iborat.

4-bosqich. Geoaxborot tizimi dasturlaridan foydalanib SRTM suratlari asosida hududning 3D relyef modelini qurish

SRTM suratlarini qayta ishlash va hududning 3D relyef modelini qurish uchun geoaxborot tizimi dasturlaridan biri bo‘lgan ArcGIS Desktop dasturidan foydalanamiz. Bu dastur imkoniyatlari juda ko‘p. Bu dasturni yuklab olish uchun 2.2-bo‘limda ko‘rsatilgan link orqali amalga oshiriladi. Yuklab, kompyuterga o‘rnatganimizdan so‘ng dasturni ishga tushiramiz. SRTM suratlarini birlashtirish uchun “Mosaic Dataset” panellaridagi instrumentlardan foydalaniladi. Birinchi navbatda “Mosaic” yaratib olamiz. “ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Mosaic Dataset → Create Mosaic Dataset” instrumentini tanlaymiz (4.22-rasm, 3). Mosaic yaratish oynasi ochiladi. “Output Location” qatoriga yaratish manzili kiritiladi, asosan geoma’lumotlar bazasini

ichiga joylashtiriladi (4.22-rasm, 4). “Mosaic Dataset Name” qatoriga esa mosaic nomi kiritiladi (4.22-rasm, 5). “Coordinate System” qatorida esa kerakli koordinatalar tizimi tanlanadi, asosan “WGS_1984_Web_Mercator_Auxiliary_Sphere” koordinata tizimini tanlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi (4.22-rasm, 6).



4.22-rasm. “Mosaic Dataset” yaratish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Keyingi ishimiz shu yaratilgan mosaic ichiga yuklab olgan SRTM suratlarini qo‘shamiz. Buning uchun “ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Mosaic Dataset → Add Rasters To Mosaic Dataset” instrumenti tanlanadi va rastrlarni qo‘shish oynasi ichiladi (4.23-rasm, 4). “Mosaic Dataset” qatoriga yaratilgan mosaic tanlanadi, bizning namunada mosaic nomi sifatida “SRTM” tanlangan (4.23-rasm, 5). 4.23-rasm 6-raqamda ko‘rsatilgan joyga SRTM suratlari joylashgan popka tanlanadi va qo‘shilganidan so‘ng 4.23-rasm 7-raqamda ko‘rsatilgan joyda paydo bo‘ladi. Barcha ishlar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi va SRTM suratlari mosaic ichiga qo‘shiladi.



4.23-rasm. Rastrlarni mosaicga qo‘shish instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Endi suratlarni qayta ishlab bitta yagona suratga keltirish kerak. Buni bajarish uchun “ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Build Overviews” instrumenti tanlanadi (4.24-rasm, 4). SRTM suratlarini umumiy ko‘rinishlarini yaratish oynasi ochiladi va “Mosaic Dataset” qatoriga mosaic tanlanadi (4.24-rasm, 5). “Environment Settings” bo‘limi ochiladi va u yerdan “Parallel Processing” qatoriga “1” raqami yoziladi (4.24-rasm, 6). Shu bilan “OK” tugmasi bosiladi va bizning ekranda SRTM suratlarining umumiy ko‘rinishi hosil bo‘ladi. Bu umumiy ko‘rinishini mosaic ichida chiqarib olamiz, ya’ni alohida rastr ko‘rinishiga olib kelamiz. Mosaic 3 ta qatlamga bo‘linadi:

1. Boundary – qo‘shilgan suratlarning umumiy chegarasi, pushti rang bilan belgilanadi. Rangini foydalanuvchi o‘ziga mos qilib o‘zgartirishi mumkin.

2. Footprint – qo‘shilgan har bir suratning chegarasi, och yashil rang bilan tasvirlanadi. Bu bilan biz nechta suratlar qo‘shilganini bilishimiz mumkin bo‘ladi.

3. Image – qo‘shilgan suratlarning umumiy ko‘rinishi. Bu suratni alohida rastr ko‘rinishiga keltirish mumkin.

Biz “Image” qatlamidan foydalanib, yaratilgan suratlarning umumiy ko‘rinishini alohida rastr ko‘rinishiga export qilib olamiz (4.25-rasm).



4.24-rasm. SRTM suratlarini umumiy ko‘rinishlarini yaratish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)



4.25-rasm. Umumiy ko‘rinishidagi suratlarni rastr ko‘rinishiga export qilish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

4.25-rasmda ko‘rsatilganidek jarayon bajariladi va mosaicdan alohida rastr ko‘rinishiga keltiramiz. Export oynasi ochilganida “Location” qatoriga saqlanadigan geoma’lumotlar bazasi manzili kiritiladi (4.25-rasm, 3). “Name” qatoriga esa rastr nomi kiritiladi (4.25-rasm, 4). “Save” tugmasini bosish orqali jarayon amalga oshadi va ochiq turgan ArcMap dasturiga qo‘shish kerakmi yoki yo‘q oynasi ochiladi. “Yes” tugmasini bosilsa, rastr ma’lumoti xaritada paydo bo‘ladi. ArcMap dasturi qatlamlari ichidan mosaicni o‘chirib tashlasak bo‘ladi. Qolgan rastr ma’lumotini Bo‘stonliq chegarasi asosida qirqib olamiz. Bunga oldingi bo‘limlarda foydalanilgan Bo‘stonliq tumanining shp fayli kerak bo‘ladi.



4.26-rasm. “Clip” instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Rastr ma’lumotini Bo‘stonliq tumani shakli asosida qirqish uchun “ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Raster Processing → Clip” instrumenti tanlanadi (4.26-rasm, 4). “Input Raster” qatoriga mosaickada yig‘ilgan SRTM suratlarining umumiy ko‘rinishi tanlanadi (4.26-rasm, 5). “Output Extent (optional)” qatoriga Bo‘stonliq tumanining shp fayli belgilanadi. “Use Input Features for Clipping Geometry (optional)” va “Maintain Clipping Extent (optional)” ko‘rsatilgan joyga belgi qo‘yiladi (4.26-rasm, 7). “Output Raster Dataset” qatoriga rastr nomi va saqlash manzili kiritiladi

(4.26-rasm, 8 va 9). Barcha amallar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi va rastr ma’lumoti Bo‘stonliq tumani shakli bo‘yicha qirqiladi.

Tayyor bo‘lgan rastr ma’lumoti asosida gorizontallar yaratib olamiz. Buning uchun “ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Surface → Contour” instrumenti tanlanadi (4.27-rasm, 3). Gorizontallar yaratish oynasi hosil bo‘lgan qismidagi “Input raster” qatoriga Bo‘stonliq tumani shaklidagi rastr ma’lumoti kiritiladi (4.27-rasm, 4). “Output feature class” qatoriga gorizontallar nomi va saqlash manzili kiritiladi (4.27-rasm, 5). “Contour interval” qatoriga esa gorizontallar qadami kiritiladi (4.27-rasm, 6).



4.27-rasm. Gorizontallarni yaratish instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Gorizontallarni yaratib bo‘lganimizdan so‘ng, endi ArcScene dasturida hududning 3D relyefini yaratib olamiz. ArcScene dasturi ishga tushganidan so‘ng Bo‘stonliq shaklidagi rastr ma’lumotini ochib olamiz.



4.28-rasm. ArcScene dasturiga rastr ma’lumotlarini qo‘shish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Bu rastr ma’lumotlarining piksel masofasi 30 metrga teng. Bu degani har 900 m^2 joyda bitta otmetka mavjud. Bunday SRTM suratlari o‘zida balandliklari mavjud bo‘lgan tasvirni anglatadi. Bu tasvirimizani 3D ko‘rinishga ko‘tarish uchun biz quyidagi amalni bajarishimiz kerak. Chaqirib olingan rastr qatlamining parametrlariga kiramiz, ya’ni qatlamga sichqonchani olib borib o‘ng tugmasi bosiladi. Shundan so‘ng “Properties…” qatori tanlanadi (4.29-rasm, 2). Qatlam parametrlari oynasi ochilganida “Base Heights” bo‘limiga o‘tamiz va “Floating on a custom surface” qatoriga belgi qo‘yamiz (4.29-rasm, 4). “OK” tugmasini bosganimizda rastr ma’lumoti 3D ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin, lekin sezilarsiz darajada. Shu sababli vertikal bo‘rttirish jarayonini amalga oshirishimiza kerak bo‘ladi. Buning uchun Sahna parametrlari kiramiz (4.30-rasm, 2). Sahna parametrlari oynasi ochilganida “Calculate From Extent” tugmasi bosiladi va avtomatik tarzda dastur o‘zi hisoblab rastr ma’lumotining 3D modelini vertikal bo‘rttirib beradi (4.30-rasm, 3).



4.29-rasm. Rastr ma’lumotlarini 3D ko‘tarish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



4.30-rasm. Vertikal bo‘rttirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Endi oldingi boblarda bajarganimizdek rastr ma’lumotiga ranglar tasvirini o‘zgartiramiz. Ranglar tasviri boshida chaqirib olganimizda oq-qora ranglarda tasvirlangan bo‘ladi. Biz esa unga  ranglarni beramiz. 3D

modelimiza ko‘rinishi sifatli bo‘ladi. Modelga yaqinlashtirganimizda ranglar to‘rtburchak shaklda ajralib turganini ko‘ramiz. Biz esa unga uzluksiz ranglar tasvirida ko‘rsatishimiza kerak. Buning uchun qatlam parametrlariga kiramiz va Display bo‘limida “Resample during display using” qatorida “Bilinear Interpolation (for continuous data)” tanlanadi (4.31-rasm).



4.31-rasm. Ranglar tasvirini uzluksiz tasvirga keltirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Natijada biz Bo‘stonliq tumanining 3D relyef modelini USGS sayti orqali SRTM suratlarini qayta ishlash asosida ArcGIS Desktop dasturida yaratilishini o‘rganib chiqdik va natija 4.32-rasmda keltirilgan.

Nazorat savollari:

1. Hududni 3D relyefini yaratish nima uchun kerak?
2. Ochiq kodli bepul saytlar haqida ma’lumotlar ayting.
3. Mosaic Dataset nima uchun kerak?
4. USGS sayti va ASF saytlari SRTM kartalari nimasi bilan farq qiladi?
5. Qaysi usulda bajarish tez va sifatli deb o‘ylaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Charles D. Ghileni and Paul R. Wolf. Elementary Surveying - An Introduction to Geomatics, 12th Edition _ textbook. USA, New Jersey, 2013

2. Antonovich K.M. Ispolzovaniye sputnikovых radionavigatsionnых sistem v geodezii. V 2 tomax. GOU VPO «Sibirskaya gosudarstvennaya geodezicheskaya akademiya». - M.: FGUP «Kartgeotsentr», T 1: 2005. - 334 ye.: il., T 2: 2006. - 360 s.: il

3. Genike A.A., Pobedinskiy G.G. Globalnaya sputnikovaya sistema opredeleniya mestopolojeneiya GPS i yeyo primeneniye v geodezii. M.: Kartgeotsentr-Geodezizdat, 1999g.



USGS saytidan olingan SRTM suratlari asosida Bo'stonliq tumanining 3D relyef modeli



4.32-rasm. USGS saytidan olingan SRTM suratlari asosida Bo'stonliq tumanining 3D relyef modeli (rasm muallif tomonidan ArcGIS Desktop dasturida tayyorlandi)

8-9-amaliy mashg‘ulot: Alyaskadagi sun’iy yo‘ldosh majmuasi saytidan yuklangan kosmik suratlar asosida hududning 3D relyefini yaratish

Ishdan maqsad: Hududning 3D relyefini yaratishda ochiq kodli saytlardan foydalanish.

Bajariladigan vaqt: 60 minut

Masalaning qo‘yilishi: Siz Google Earth Pro dasturi yordamida olingan ma’lumotlarni ArcMap dasturida qayta ishlab hududning 3D relyefini yaratdingiz. Endi bu topshiriqda hududning 3D relyefini yaratish hisoblanadi, lekin ma’lumotlar Google Earth Pro dasturidan emas, balki ochiq kodli saytlardan olinadi, ya’ni SRTM kartalari. Biz bilamizki yerni sun’iy yo‘ldoshlari mavjud bo‘lib, ular tomonidan har kuni kuzatuv ishlari olib boriladi. 2000 yilda radiolakatsion suratga olish usuli bilan yer yuzini sun’iy yo‘ldosh bilan amalga oshirilgan. Siz quyidagi ochiq kodli saytdan foydalanishni o‘rganasiz: https://search.asf.alaska.edu/#/

1-bosqich. Alyaskadagi sun’iy yo‘ldosh majmuasi haqida

Alyaskadagi sun’iy yo‘ldosh majmuasi (angl.Alaska Satellite Facility qisqartmasi ASF) Alyaska Fairbanks universiteti Geofizika instituti tarkibiga kiradi. ASF birinchi antennasi 1991 yilda ishga tushgan va ERS-1 dan birinchi signal olishni boshlaydi. 1994 yilda ASF Taqsimlangan Faol Arxiv Markazi (angl.Distributed Active Archive Center – qisqartirilgani DAAC) NASA bilan shartnoma asosida yaratilgan. 1995 yilda ASF RADARSAT-1 ma’lumotlari signalini ulaydi, qayta ishlaydi va tarqatadi (5.1-rasm). Shu yili 11 metr balandlikdagi NASA antennasi Yaponiya Milliy Koinot Rivojlanish Agentligi (NASCA)ning ilg‘or Yerni kuzatish sun’iy yo‘ldoshini (ADEOS-1) qo‘llab-quvvatlash uchun o‘rnatildi. 1997 yilda RADARSAT-1 Antarktika xaritalash missiyasi 1 yakunlandi. Plitka bilan qoplangan mozaika Ogayo shtati universiteti tomonidan yaratilgan (5.2-rasm). 2003 yilda Alyaska SAR ob’ekti yanada tavsifli bo‘lishi va ob’ekt va umuman uning xizmatlarini yaxshiroq aks ettirishi uchun Alyaska sun’iy yo‘ldosh qurilmasi deb o‘zgartirildi. 2006 yilda buyruqlar faylining orbital sun’iy yo‘ldoshga birinchi ASF



5.1-rasm. Radarsat-1 sun’iy yo‘ldoshi (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

ulanishi yakunlandi. 2006 yilda JAXA ALOS sun’iy yo‘ldoshi uchirildi va Amerikaning ALOS Data Node (AADN) NOAA bilan hamkorlikda yaratilgan.



5.2-rasm. RADARSAT-1 Antarktika xaritasi (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

ASF missiyasi masofadan zondlash ma’lumotlariga kirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Bundan tashqari:

- Alyaska sun’iy yo‘ldosh qurilmasi (ASF) NASAning ESDIS loyihasini qo‘llab-quvvatlovchi tadqiqotchilarga xizmat ko‘rsatuvchi Sintetik Aperture Radar (SAR) ma’lumotlarining NASA arxivini boshqaradi.
- ASF butun dunyo bo‘ylab ilmiy foydalanuvchilarga masofadan zondlash ma’lumotlarini tushiradi, qayta ishlaydi, arxivlaydi va tarqatadi
- ASF milliy va xalqaro Yer haqidagi ilmiy tadqiqotlar, dala operatsiyalari va tijorat ilovalarini qo‘llab-quvvatlash uchun masofadan zondlashni targ‘ib qiladi, osonlashtiradi va rivojlanishida ishtirok etadi.



5.3-rasm. UAVSAR ma’lumotlari Meksika ko‘rfazida Deepwater Horizon neft to‘kilishini aniqlash (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

- ASF eng yuqori sifatli ma’lumotlar va xizmatlarni zudlik bilan taqdim etish majburiyatini oladi

ASF NASAning turli sun’iy yo‘ldoshlar va samolyotlardan olingan sintetik diafragma radar (SAR) ma’lumotlari arxivini boshqaradi va NASAning Yer fanlari ma’lumotlari va axborot tizimi (ESDIS) loyihasini qo‘llab-

5.4-rasm. ASFda NASAning uchinchi antennasi uchun lentani kesish marosimi. (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

quvvatlash uchun tadqiqotchilarga ushbu ma’lumotlarni va tegishli xizmatlarni taqdim etadi.

2008 – yilda NASA Airborne SAR (AIRSAR) ma’lumotlar to‘plami arxiv va tarqatish uchun ASF DAACga qo‘shildi.

2010 – yilda ASF DAAC orqali kirish mumkin bo‘lgan ALOSPALSAR ma’lumotlari Gaitidagi halokatli zilzilaga sabab bo‘lgan nosozlik zonalarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. NASA ning Kuzatuv va ma’lumotlar uzatish yo‘ldosh tizimi (TDRSS) Yaponiyaning ALOS missiyasi uchun ma’lumotlarni yig‘ishni boshlaydi, bu tarixiy xalqaro hamkorlikning boshlanishi.

2011 – yilda Yangi Web Data Portal Vertex ishga tushirildi.

2012 – yilda ASF DAAC orqali olingan UAVSAR ma’lumotlari Meksika ko‘rfazida Deepwater Horizon neft to‘kilishini aniqlashda muhim rol o‘ynadi (5.3-rasm).

2013 – yilda ASF DAAC yangi ishlangan tasvirlarni chiqaradi, ularning aksariyati 1978 yilda Seasat tarixiy missiyasida hech qachon ko‘rilmagan.

2014 – yilda ASF DAAC ma’lumotlar arxivi 1,5 petabaytdan oshadi, bu taxminan MP3 sifatida saqlangan 500 million qo‘shiqqa teng.

5.5-rasm. Sentinel – 1B sun’iy yo‘ldoshi. (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

5.6-rasm. AS2 antennasining almashtirilishi. (manba https://asf.alaska.edu/timeline/)

2014 – yilda ASF da uchinchi antenna ishga tushiriladi. Shu yili ASF Enterprise universitetga tegishli antenna aktivlaridan yerosti stansiya xizmatlarini taklif qiladi.

2015 – yil NASAning nufuzli mukofoti ASF Ground Station jamoasini yangi antennani muddatidan oldin to‘liq ishga tushirgani uchun taqdirlaydi.

2015 – yil ASF ALOS PALSAR ma’lumotlar to‘plamining radiometrik relyefini tuzatishni yakunlaydi va shu yili ASF DAAC NASA va Yevropa kosmik agentligi o‘rtasidagi tarixiy kelishuv orqali Sentinel 1A ma’lumotlarining butun arxivini tarqatishni boshlaydi.

2016 – yilda NASA ASF DAAC 2023-yilda ishga tushiriladigan AQSh va Hindiston qo‘shma sun‘iy yo‘ldosh missiyasi NISAR ma’lumotlarini tarqatishini e’lon qildi.

2016 – yilda Yaponiya hukumati ALOS PALSAR ma’lumotlarini cheklanmagan qilib, xalqaro foydalanuvchilarga ASF DAAC tomonidan arxivlangan 2006-2011 ma’lumotlar to‘plamiga yangi kirish imkonini beradi, hamda shu yili Sentinel-1B global SAR qamrovini ta’minlashda Sentinel-1Aga qo‘shilish uchun ishga tushirildi (5.5-rasm). Ikkala sun’iy yo‘ldoshdan olingan ma’lumotlar ASFdan tarqatiladi.

2016 – yilda ASF Ground Station NASA SMAP missiyasini Yerning tuproq namligini o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi ASF DAAC SMAP ma’lumotlarini tarqatishni boshlaydi.

2017 – yilda CT Elvey binosining tepasida joylashgan birinchi ASF antennasi (1991) NASA Near Space Network dasturini qo‘llab-quvvatlash uchun yangilangan (5.6-rasm).

2020 – yilda NASA AS1 antennasi (1996) eng zamonaviy ishlashni ta’minlash uchun yangilanadi

2021 – yilda ASFda eng yangi NASA antennasini qurish tugallandi. AS4 yaqinlashib kelayotgan NISAR sun’iy yo‘ldosh missiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

2022 – yilda HyP3 On Demand bulutli ishlov berish Vertex Data Search dasturiga kiritilgan

Milliy Aeronavtika va Koinot Boshqarmasi (NASA) Yer fanlari ma’lumotlari va axborot tizimi (ESDIS) loyihasi Goddard kosmik parvozlar markazidagi Parvoz loyihalari direksiyasining Yer haqidagi fan loyihalari bo‘limining bir qismidir. ESDIS ning asosiy komponentlari sifatida 12 ta o‘zaro bog‘langan Taqsimlangan Faol Arxiv Markazlari (DAAC) Qo‘shma Shtatlar bo‘ylab mustaqil ob’yektlarning taqsimlangan tarmog‘i, shu jumladan Alyaska sun’iy yo‘ldosh majmuasi (ASF) tomonidan boshqariladigan NASA DAAC tomonidan boshqariladi.

ASF DAAC sintetik diafragma radar (SAR) ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, arxivlash va tarqatishga ixtisoslashgan. Ushbu ma’lumotlar ko‘plab turli kosmik va havo platformalarida SAR sensorlari tomonidan taqdim etilayotgan yoki taqdim etilgan, jumladan:

- Yevropa kosmik agentligi Sentinel-1, Yevropa Yerni masofadan zondlash yo‘ldoshi (ERS)-1 va ERS-2.
- Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligining Yaponiya Yer sun’iy yo‘ldoshi (JERS-1) va Yerni kuzatishning ilg‘or sun’iy yo‘ldoshi (ALOS).
- Kanada kosmik agentligi RADARSAT-1 sun’iy yo‘ldoshi
- NASAning SMAP, Havodagi sintetik diafragma radarlari (AIRSAR), uchuvchisiz samolyotlar uchun sintetik diafragma radarlari (UAVSAR), SIR-C va Seasat missiyalari.

Vertex - bu ASF DAAC ma’lumotlar hovuzi aktivlarini qidirish va vizualizatsiya qilish, ushbu aktivlar haqida tegishli metama’lumotlarni yetkazib berish va ushbu ASF

ma’lumotlarini ommaviy yetkazib berishni osonlashtiradigan intuitiv foydalanuvchi interfeysi. Vertex foydalanuvchilarni SAR platformalari, nurlanish rejimlari yoki ishlov berish parametrlari haqida oldindan bilim talab qilmasdan SAR ma’lumotlari bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan.

ASF Search API - bu buyruq qatorida qidirish va yuklab olish imkonini beruvchi dastur dasturlash interfeysi (23).

ASF sun’iy yo‘ldoshni kuzatish antennalari.

Alyaskadagi sun’iy yo‘ldosh qurilmasi NASA Goddard kosmik parvozlar markazi tomonidan boshqariladigan Yerga asoslangan kosmik kemalarni qo‘llab-quvvatlash vositalarining global majmuasi bo‘lgan Near Space Network (NSN) tarkibiga kiruvchi to‘rtta sun’iy yo‘ldoshni kuzatish va aloqa antennalarini boshqaradi.

ASF qutb orbitasidagi sun’iy yo‘ldoshlar uchun erga asoslangan aloqa va kuzatuvni qo‘llab-quvvatlaydigan ikkita qurilmani boshqaradi.

5.7-rasm. Alyaska Fairbanks universitetining Troth Yeddha kampusida joylashgan sun’iy yo‘ldoshni kuzatish antennasi (manba https://asf.alaska.edu/asf-satellite-tracking-stations/)

2-bosqich. ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldoshi va radiometric tuzatish loyihasi haqida

Daichi nomi bilan atalgan ALOS (Advanced Land Observing Satellite) kosmik apparati 2006-yil 24-yanvarda Yaponiyaning Kyushu orolidagi Kagosima prefekturasidagi Tanegasima kosmik uchirish markazidan mahalliy vaqt bilan soat 10:33 da uchirilgan. Sun'iy yo'ldoshning egasi Yaponiya aerokosmik agentligi JAXA hisoblanadi. Sun'iy yo'ldosh 691,65 km balandlikda quyosh-sinxron orbitaga chiqarildi. 2011 yil 22 aprelda sun'iy yo'ldosh boshqaruvni yo'qota boshlagan. Uning faoliyatini tiklashning iloji bo'lmadi. Shu sababdan Sun'iy yo'ldosh 2011 yil 12 mayda to'xtatilgan. Faqat arxivlangan ma'lumotlar mavjud.

5.8-rasm. Alos Palsar sun'iy yo'ldoshi (manba https://asf.alaska.edu/datasets/daac/alos-palsar/)

Radiometrik relyef tuzatilgan (RTC) mahsulotlarini yaratish SAR ma'lumotlarini kengroq foydalanuvchilar jamoasi uchun ochiq qilish uchun Alyaska sun'iy yo'ldosh majmuasining loyihasi edi. RTC sintetik diafragma radariga (SAR) xos bo'lgan geometrik va radiometrik buzilishlarni yo'q qiladi va tuzatilgan PALSAR ma'lumotlari GeoTIFF formatida taqdim etiladi.

ALOS PALSAR RTC mahsulotlarini chiqarish 2014-yil oktabr oyida boshlangan va bir yildan keyin yakunlangan. RTC loyihasida Antarktida, Grenlandiya, Islandiya va Yevrosiyo shimolidan tashqari barcha global quruqlik hududlarida Fine Beam (FBS, FBD) va Polarimetrik (PLR) sahnalari ishlatilgan.

5.1-jadval. RTC xususiyatlari

Ma’lumotlar to‘plami xususiyati	Yuqori aniqlik (RT1)	Past aniqlik (RT2)
Vaqtinchalik qamrov	2006-2011 yillar	2006-2011 yillar
Piksel oralig‘i	12,5 metr	30 metr
Fayl formati	GeoTIFF	GeoTIFF
Paketga kiritilgan fayllar	Har bir piksel uchun burchakni radianlarda ko‘rsatuvchi GeoTIFF tushish burchagi Layover/Shadow GeoTIFF, qayerda qayta ishlashga yotqizish yoki soya ta’sir qilganligini ko‘rsatadi 1000 x 1000 pikselli GeoJPEG formatidagi tasvirni ko‘rib chiqing 30 m qoplamali KMZ fayli ISO 19115 formatidagi metadata (xml fayli) O‘zgartirilgan SRTM yoki NED DEM GeoTIFF formatida RTC ishlov berish uchun ishlatiladi	Har bir piksel uchun burchakni radianlarda ko‘rsatuvchi GeoTIFF tushish burchagi Layover/Shadow GeoTIFF, qayerda qayta ishlashga yotqizish yoki soya ta’sir qilganligini ko‘rsatadi 1000 x 1000 pikselli GeoJPEG formatidagi tasvirni ko‘rib chiqing 30 m qoplamali KMZ fayli ISO 19115 formatidagi metadata (xml fayli) O‘zgartirilgan SRTM yoki NED DEM GeoTIFF formatida RTC ishlov berish uchun ishlatiladi
Provayder	Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi (JAXA).	Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi (JAXA).
Chop etilgan sana:	2014 yil	2014 yil

3-bosqich. ASF Vertex saytidan ro‘yxatdan o‘tish texnologiyasi

Yuqori aniqlikdagi, ya’ni piksel masofasi 12,5 metrga teng bo‘lgan kosmik suratlarni yuklab olish uchun https://search.asf.alaska.edu/#/ saytiga kiramiz. Kosmik suratlar yuklab olish uchun ASF Vertex saytida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishimiz kerak.



5.9-rasm. ASF vertex saytining interfeysi (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

ASF vertex sayti interfeysining tepa o‘ng qismida “Sign In” tugmasi mavjud bo‘lib, shu tugma bosiladi. Saytga kirish oynasi ochiladi. Agar avval ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsangiz “Username” qatorida login kiritiladi (5.10-rasm, 1), “Password” qatoriga esa parol kiritiladi (5.10-rasm, 2). Shundan so‘ngina “LOG IN” tugmasi bosiladi (5.10-rasm, 3) va saytga kirgan hisoblaniladi. Agar siz oldin ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsangiz, u holda “REGISTER” tugmasi bosiladi va ro‘yxatdan o‘tish oynasi ochiladi.



5.10-rasm. ASF Vertex sayti akkountiga kirish yoki ro‘yxatdan o‘tish oynasi (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

Ro‘yxatdan o‘tish oynasi ochilganidan so‘ng, u yerda profilga taaluqli ma’lumotlar, hamda foydalanuvchiga taaluqli ma’lumotlar kiritiladi.

Profile Information (profil ma’lumotlari)**:**

“Username” – profil nomi, ya’ni login kiritiladi. Profil nomini kiritish shartlari:

kamida 4 ta belgidan iborat bo‘lishi;

maksimal 30 belgidan oshmasligi kerak;

kamida bitta harfdan iborat bo‘lishi kerak;

harflar, raqamlar, nuqtalar va pastki chiziqlardan foydalanish kerak;

bo‘sh joy bo‘lmasligi kerak;

maxsus belgilardan boshlamaslik, tugatmaslik yoki ketma-ket maxsus belgilar bo‘lmasligi kerak (. _).

“Password” – bu qatorga parol kiritiladi va parolni unutmaslik kerak.

Parol quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

kamida 12 ta belgi;

bitta bosh harf;

bitta kichik harf;

bitta raqam;

bitta maxsus belgi bo‘lishi kerak.

“Password Confirmation” – bu qatorga kiritilgan parolni qayta kiritish joyi hisoblanadi. Bu jarayon parolni xato kiritilmaganligiga va foydalanuvchi eslab qolishiga targ‘ib qiladi.



5.11-rasm. Profil ma’lumotlari (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

User Information (foydalanuvchi haqidagi ma’lumotlar)**:**

“First Name” – Foydalanuvchi ismi kiritiladi;

“Last Name” – Foydalanuvchi familiyasi kiritiladi;

“Middle Initial” – Foydalanuvchining otasining ismi;

“E-mail” – Foydalanuvchining aktiv elektron pochtasi kiritiladi;



5.12-rasm. Foydalanuvchi haqidagi ma’lumotlar (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/# saytida tayyorlandi)

Country Information (Mamlakat haqidagi ma’lumot):

“Country” – Yashash manzili kiritiladi.

Affiliations (Talab qilingan ish jarayonlar):

“Affiliation” – kosmik yoki aeromateriallarni foydalanish sohalari ichidan bittasi tanlanadi. Agar ko‘rsatilgan sohalar ichida siz foydalanadigan soha mavjud bo‘lmasa “other” ya’ni boshqa qatori tanlanadi.

“If ‘other’ selected above” – bu qatorga foydalanuvchi “Affiliation” qatorida ‘other’ tanlangan holatdagina foydalaniladigan soha yoziladi.

“Study Area” – bu qatorga o‘rganish sferasi ko‘rsatiladi. Bizning namunada “Land Processes” (yerni o‘rganish jarayonlari) tanlangan.

“User Type” – bu qatorga foydalanuvchi turi kiritiladi. Bizning misolda esa “Public User” (umumiy foydalanuvchi) tanlangan.

“Organization” – foydalanuvchi ishlayotgan tashkilot yoki o‘quv yurtlari nomi kiritiladi.



5.13-rasm. Mamlakat haqidagi ma’lumot va talab qilingan ish jarayonlar (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)



5.14-rasm. Kelishuvlarga belgi qo‘yish (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

Tepada ko‘rsatilgan barcha ma’lumotlar kiritilganidan so‘ng, kelishuvlarga belgi qo‘yib chiqiladi. 5.14-rasm 1-raqamda ko‘rsatilgan joyga belgi ixtiyoriy qo‘yiladi. Bu

belgi qo‘yish orqali EOSDIS ilmiy ma’lumotlar mahsulotlari (masalan, yangilanishlar, yangi ma’lumotlar nashrlari, sifat muammolari), EOSDIS ilovalari/vositalari (masalan, yangilanishlar, xizmat ko‘rsatishda uzilishlar) va foydalanuvchilar uchun boshqa tegishli ma’lumotlar haqida muhim ma’lumotlar bilan elektron pochta orqali xabar berilishiga rozilik bildiriladi.

5.14-rasm 2 raqamdegi ko‘rsatilgan belgi esa Meris va ESA Sentinel-3 ma’lumotlari ASF saytiga foydalanuvchi tomonidan qiziqtirishi haqida ma’lumot beriladi va nihoyat 3 raqamdegi belgi esa MERIS oxirgi foydalanuvchi litsenziya shartnomasiga rozilik bildiriladi.

5.15-rasm 1 raqamda ESA Sentinel-3 oxirgi foydalanuvchi litsenziya shartnomasiga rozilik bildiriladi.

Shu belgilar qo‘yilganidan so‘ng ASF saytining ro‘yxatdan o‘tish qismi nihoyasiga yetgan hisoblanadi. Undan keyin esa foydalanuvchi kompyuter emas balki inson boshqarayotganini tasdiqlash maqsadida 5.15-rasm 2-raqamda ko‘rsatilgan joyga belgi qo‘yiladi.

“REGISTER FOR EARTHDATA LOGIN” tugmasi bosilib keying jarayonga o‘tiladi.



5.15-rasm. Kelishuvlarga belgi qo‘yish (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)



5.16-rasm. Ro‘yxatdan o‘tilgan login parol asosida saytga kirish (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)



5.17-rasm. Elektron pochtaga aktivlashtirish habarini yuborish oynasi (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

5.16-rasmda ko‘rsatilganidek, ro‘yxatdan o‘tkazilgan profil nomi va parol yozilib, tizimga kirish uchun “LOG IN” tugmasi bosiladi. Profil aktivlashtirilmagani uchun sayt profilni aktivlashtirish uchun habar yuborishni talab qiladi (5.17-rasm). Habar yuborilganini electron pochtadan tekshirib olamiz. noreply@nasa.gov elektron pochtasidan 2ta habar keladi (5.18-rasm, 1 va 2). Shu 2 ta habarga kirib, aktivlashtirish ssilkasini bosamiz (5.19-rasm).



5.18-rasm. Elektron pochtaga kelgan habar (rasm muallif tomonidan gmail.com electron pochtasida tayyorlandi)



5.19-rasm. Aktivlashtirish ssilkasi (rasm muallif tomonidan gmail.com electron pochtasida tayyorlandi)

Ssilkaga bosganimizdan so‘ngini biz yaratgan profil aktiv holatga keladi va ASF vertex saytidan kosmik yoki aero materiallarni yuklab olishimiz mumkin.



5.20-rasm. ASF Vertex saytida aktivlashtirilgan profil (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)



5.21-rasm. ASF Vertex saytida profilga kirish (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

Ro‘yxatdan o‘tish ishlari nihoyasiga yetdi. Endi navbat bevosita kosmik suratlarni yuklab olish hisoblanadi.

4-bosqich. ASF saytidan yuqori aniqlikdagi Raqamli balandlik modelini yaratish uchun to‘g‘rilangan kosmik suratlarni yuklab olish texnologiyasi

Biz https://search.asf.alaska.edu/#/ saytiga kiramiz. Ro‘yxatdan o‘tgan profilimiz aktivligini bilishimiz uchun sayt interfeysining tepa o‘ng qismida joylashgan biz nom bergan profil nomi yozilgan bo‘ladi. Bizning namunada bu “taqu_geomatika_2023” nomi bilan turibdi (5.22-rasm). Endi bu saytning interfeysini o‘rganib chiqsak. Saytning interfeysini o‘rganishda muallif tomonidan 3 guruhga bo‘linib ko‘rsatilgan.



5.22-rasm. ASF Vertex saytining kosmik va aero suratlarni yuklab olish interfeysi (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

1-guruh panel instrumentlarida sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari joylashgan.

"Search Type" panelida qidiruv turini kiritish kerak bo'ladi. Biz asosan kosmik va aero suratlarni yuklab olish bilan shug'ullanishimizdan kelib chiqib, "Geographic Search" tanlanadi (5.23-rasm)



5.23-rasm. “Search Type” paneli (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

“Dataset” panelida qaysi sun’iy yo‘ldosh yoki Aeroplan ma’lumotlaridan foydalanilsa shu tanlanadi. Bunda biz “ALOS PALSAR” sun’iy yo‘ldoshini belgilaymiz (5.24-rasm).



5.24-rasm. Sun’iy yo‘ldoshni tanlash paneli (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

“Area of Interest WKT” panelida hudud belgilanganidan so‘ng koordinatalari paydo bo‘ladi. Bu panelni keying rasmlarda hudud belgilanganidan so‘ng ko‘rishingiz mumkin.

“Filters” va “SEARCH” panellarini hudud belgilanganidan so‘ng belgilaymiz.

2-guruh panel instrumentlari qatlamlarni boshqarish bilan shug‘ullanadi (5.22-rasm, 2).

“Map View” - bu dunyo xaritasining ko‘rinishini o‘zgartiradi. 3 xil ko‘rinishda foydalanuvchilarga taqdim qiladi. 1-ko‘rinish ekvatorial ko‘rinish ASF Vertex interfeysida ko‘rinib turganidek. Qolgan ikkitasi janub va shimoldan ko‘rinishi, ya’ni azimuthal ko‘rinishni taqdim qiladi.

“Zoom” - dunyo xaritasida masshtabini o‘zgartirishdan iborat, ya’ni yaqinlashtirish va uzoqlashtirish bilan shug‘ullanadigan panellar instrumenti.

“Layer” - dunyo xaritasini o‘zgartiradigan panellar instrument. U yerda sun’iy yo‘ldosh tasviri va avtomobil yo‘llari tasviri keltirilgan. Bulardan tashqari Dunyo xaritasining umumiy ko‘rinishi (kichkina xarita) va koordinatalar setkasini taqdim etadi.

“Area of Interest” - panel instrumentida esa o‘rganilayotgan hududni belgilash, o‘zgartirish va o‘chirish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari shp, geojson, kml, zip formatlari bilan integratsiya qiladi. Bu panelni chuqurroq o‘rganish uchun 5.25-rasmga nazar soling.



5.25-rasm. “Area of Interest” panellar instrumenti (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

“Place a Point” – bu panel orqali hududga metkalar yasaymiz.

“Draw a Line” – bu panel orqali hududga chiziqlar yasaymiz.

“Draw a Polygon” – bu panel orqali hududfa turli xil shaklga ega maydonli obyekt yasaymiz. Agar o‘rganilayotgan hududni qayerdaligini bilsangiz, shu instrument orqali chizib ma’lumotlar yuklab olishingiz mumkin.

“Draw a box” – bu panel o‘zidan oldingi “Draq a Polygon”ga nisbatan qat’iy ravishda to‘g‘ri to‘trburchak shaklidagi maydon yasaydi.

“Draw a circle” – bu panel orqali hududda aylana shaklidagi maydon yasaladi.

“Upload Geospatial File” – bu panel esa shp, geojson, kml, zip formatlaridagi ma’lumotlarni import qilish bilan shug‘ullanadi.

Bulardan tashqari “Area of Interest” panelida “stop editing” (chizishni to‘xtatish), “Draw new area of interest” (yangi hududni chizish) va “clear current area of interest” (o‘chirish) instrumentlari mavjud.

“Opacity” 100% - bu panel chzilgan qatlamlarni shaffof holatiga keltiradi.

Bizda Bo‘stonliq tumanining shakli o‘zgartirilgan kml formatidagi fayl mavjud bo‘lib, u faylni import qilib olamiz (5.26-rasm).



5.26-rasm. KML formatidagi faylni import qilish (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

3-guruh panellar instrumenti esa saytga va foydalanuvchiga taaluqli parametrlarini bildiradi (5.22-rasm, 3).

“On Demand” On Demand - bu sayt mutaxassislariga beriladigan so‘rovnomasi, ya’ni qaysidur sahnada suratlarni qayta ishlash uchun yuboriladi.

“Downloads” Downloads - bu panel instrumentida yuklashga tashalgan suratlar joylashadi, ya’ni savatcha deb atasak bo‘ladi.

“Help” Help - bu yordam tugmasi.

“English” English - tilni o‘zgartirish tugmasi.

taqu_geomatika_2023 - Foydalanuvchiga taaluqli bo‘lib, ya’ni tizimdan chiqish, tarix va h.k.

ASF Vertex saytining interfeysini o‘rganib chiqdik. Endi navbat kosmik suratlarni yuklab olishdan iborat. Interfeysini o‘rganish jarayonida sun’iy yo‘ldoshni tanladik, ya’ni ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldoshi va Bo‘stonliq tumanining shakliga o‘zgartirish kiritilgan kml formatidagi faylni import qildik. Filterlash ishlarini qilib, so‘ng qidiruv tugmasini bosamiz.



5.27-rasm. Filterlash jarayoni (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

Filterlash uchun 5.27-rasm 1-raqamdagi panelga kiriladi. So‘ngra “Additional Filters” bo‘limida “file types selected” qatoriga “Hi-Res Terrain Corrected” tanlanadi. Bu fayl bizga piksel masofasi 12,5 metrlik bo‘lgan raqamli balandlik modelini qurish uchun tiff formatidagi suratlarni taqdim qiladi (5.27-rasm, 3). Filterlash ishlari tugaganidan so‘ng “SEARCH” tugmasi bosiladi (5.27-rasm, 4) va ekranda yuklab olish uchun suratlar paydo bo‘ladi, hamda saytning pastki qismida yuklab olish fayllari ochiladi. Dunyo

xaritasida joylashgan kvadratlarni belgilasak (5.28-rasm, 1), sayt interfeysining chap pastki qismida joylashgan fayllar orasida bittasi avtomatik tarzda belgilanadi va 5.28-rasm 3-raqamda ko‘rsatilgan qismida shu belgilangan fayl ichidagi ma’lumotlar kelib chiqadi. Yuklash tugmasini bosganimizdan so‘ng, sayt tomonidan belgilangan fayl yuklanishi boshlanadi. Shu yo‘sinda toki hududimizning barcha qismini qamrab olgunga qadar suratlarni yuklashni boshlaymiz. Bir hududning o‘zida bir nechta kosmik suratlar bo‘lishi mumkin. Ular ichidan bittasini yuklasak yetarli. Faqat eng oxirgi suratga olingan vaqtiga qarab yuklaymiz.



5.28-rasm. Yuqori aniqlikdagi raqamli balandlik modeli faylini yuklab olish jarayoni (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida tayyorlandi)

O‘rganilayotgan hudud bo‘yicha qamrab olgunga qadar barcha suratlarni yuklab bo‘lganimizdan so‘ng, har bir faylni ochib, ichidan “…RT1.dem.tif” nomli fayllarni bitta popkaga joylashtiramiz. Shu faylgina bizga piksel masofasi 12,5metr bo‘lgan raqamli balandlik modelini beradi. Bundan tashqari yuklangan fayl Ichida boshqa formatdagi fayllar mavjud bo‘lib, ma’lum bir ishlarda foydalaniladi (5.29-rasm).

5.29-rasm. Yuklangan fayllar ichidagi materiallar to‘plami (rasm muallif tomonidan https://search.asf.alaska.edu/#/ saytida yuklangan materiallarni kompyuterda ochish orqali tayyorlandi)

5-bosqich. ASF saytidan yuqori aniqlikdagi ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldosh materiallari asosida geoaxborot tizimi dasturlaridan foydalanib hududning raqamli balandlik modelini yaratish

ArcGIS Desktop dasturidan foydalangan holda ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldosh mteriallari asosida yuqori aniqlikdagi raqamli balandlik modelini yaratamiz. Bu dasturni yuklab olish uchun 2.2-bo‘limda ko‘rsatilgan link orqali amalga oshiriladi. Yuklab, kompyuterga o‘rnatganimizdan so‘ng dasturni ishga tushiramiz. ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldosh suratlarini birlashtirish uchun “Mosaic Dataset” panellaridagi instrumentlardan foydalaniladi. 4-bobda biz ArxToolbox ichidagi instrumentlardan foydalangandik. Bu bobda esa Catologdan foydalangan holda suratlarni birlashtiramiz. Catalogdan foydalanib geoma’lumotlar bazasini yaratib olamiz. Yaratilgan geoma’lumotlar bazasiga sichqonchani o‘ng tugmasi bosiladi va paydo bo‘lgan vaqtinchalik paneldan “New → Mosaic Dataset” tanlanadi (5.30-rasm). Shu bilan Mosaic yaratish oynasi ochiladi. “Output Location” qatoriga yaratish manzili kiritiladi, asosan geoma’lumotlar bazasini ichiga joylashtiriladi (5.31-rasm, 1). “Mosaic Dataset Name” qatoriga esa mosaic nomi kiritiladi (5.31-rasm, 2). “Coordinate System” qatorida esa kerakli koordinatalar tizimi

tanlanadi, asosan “WGS_1984_Web_Mercator_Auxiliary_Sphere” koordinata tizimini tanlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi (5.31-rasm, 3).



5.30-rasm. Catalogdan foydalanib mosaic yaratish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)



5.31-rasm. “Mosaic Dataset” yaratish oynasi (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Keyingi ishimiz shu yaratilgan mosaic ichiga yuklab olgan ALOS PALSAR sun’iy yo‘ldosh suratlarini qo‘shamiz. Buning uchun Catalogda yaratilgan mosaicga

sichqonchani o‘ng tugmasi bosiladi va vaqtinchalik panellar instrumenti ichidan “Add Rasters…” tanlanadi va rastrlarni qo‘shish oynasi ichiladi (5.32-rasm, 2). “Mosaic Dataset” qatoriga yaratilgan mosaic tanlanadi, bizning namunada mosaic nomi sifatida “DEM” tanlangan (5.32-rasm, 3). 5.32-rasm 5-raqamda ko‘rsatilgan joyga DEM suratlari joylashgan popka tanlanadi. Barcha ishlar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi va DEM suratlari mosaic ichiga qo‘shiladi.



5.32-rasm. Rastrlarni mosaicga qo‘shish instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Endi suratlarni qayta ishlab bitta yagona suratga keltirish kerak. Buni bajarish uchun Catalogda DEM nomli mosaic ustiga sichqonchani o‘ng tugmasi bosiladi va u yerdan “Optimize → Build Overviews…” instrumenti tanlanadi (5.33-rasm, 3). DEM suratlarini umumiy ko‘rinishlarini yaratish oynasi ochiladi va “Mosaic Dataset” qatoriga mosaic tanlanadi (5.34-rasm, 1). “Environment Settings” bo‘limi ochiladi va u yerdan “Parallel Processing” qatoriga “1” raqami yoziladi (5.34-rasm, 3). Shu bilan “OK” tugmasi bosiladi va bizning ekranda DEM suratlarining umumiy ko‘rinishi hosil bo‘ladi. Bu umumiy ko‘rinishini mosaic ichidan chiqarib olamiz, ya’ni alohida rastr ko‘rinishiga olib kelamiz.



5.33-rasm. “Build Overviews” instrumentini yoqish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)



5.34-rasm. “Build Overviews” instrumentida ishlash (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Mosaic 3 ta qatlamga bo‘linadi:

1. Boundary – qo‘shilgan suratlarning umumiy chegarasi, pushti rang bilan belgilanadi. Rangini foydalanuvchi o‘ziga mos qilib o‘zgartirishi mumkin.

2. Footprint – qo‘shilgan har bir suratning chegarasi, och yashil rang bilan tasvirlanadi. Bu bilan biz nechta suratlar qo‘shilganini bilishimiz mumkin bo‘ladi.

3. Image – qo‘shilgan suratlarning umumiy ko‘rinishi. Bu suratni alohida rastr ko‘rinishiga keltirish mumkin.

Biz “Image” qatlamidan foydalanib, yaratilgan suratlarning umumiy ko‘rinishini alohida rastr ko‘rinishiga export qilib olamiz (5.35-rasm).



5.35-rasm. Umumiy ko‘rinishidagi suratlarni rastr ko‘rinishiga export qilish (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

5.35-rasmda ko‘rsatilganidek jarayon bajariladi va mosaicdan alohida rastr ko‘rinishiga keltiramiz. Export oynasi ochilganida “Location” qatoriga saqlanadigan geoma’lumotlar bazasi manzili kiritiladi (5.35-rasm, 3). “Name” qatoriga esa rastr nomi kiritiladi (5.35-rasm, 4). “Save” tugmasini bosish orqali jarayon amalga oshadi va ochiq turgan ArcMap dasturiga qo‘shish kerakmi yoki yo‘q oynasi ochiladi. “Yes” tugmasini bosilsa, rastr ma’lumoti xaritada paydo bo‘ladi. ArcMap dasturi qatlamlari ichidan mosaicni o‘chirib tashlasak bo‘ladi. Qolgan rastr ma’lumotini Bo‘stonliq chegarasi

asosida qirqib olamiz. Bunga oldingi bo‘limlarda foydalanilgan Bo‘stonliq tumanining shp fayli kerak bo‘ladi.



5.36-rasm. “Clip” instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Rastr ma’lumotini Bo‘stonliq tumani shakli asosida qirqish uchun “ArcToolbox → Data Management Tools → Raster → Raster Processing → Clip” instrumenti tanlanadi (5.36-rasm, 4). “Input Raster” qatoriga mosaickada yig‘ilgan DEM suratlarining umumiy ko‘rinishi tanlanadi (5.36-rasm, 5). “Output Extent (optional)” qatoriga Bo‘stonliq tumanining shp fayli belgilanadi. “Use Input Features for Clipping Geometry (optional)” va “Maintain Clipping Extent (optional)” ko‘rsatilgan joyga belgi qo‘yiladi (5.36-rasm, 7). “Output Raster Dataset” qatoriga rastr nomi va saqlash manzili kiritiladi (5.36-rasm, 8 va 9). Barcha amallar to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng “OK” tugmasi bosiladi va rastr ma’lumoti Bo‘stonliq tumani shakli bo‘yicha qirqiladi.

Tayyor bo‘lgan rastr ma’lumoti asosida gorizontallar yaratib olamiz. Buning uchun “ArcToolbox → Spatial Analyst Tools → Surface → Contour” instrumenti tanlanadi (5.37-rasm, 3). Gorizontallar yaratish oynasi hosil bo‘lgan qismidagi “Input raster” qatoriga Bo‘stonliq tumani shaklidagi rastr ma’lumoti kiritiladi (5.37-rasm, 4). “Output feature class” qatoriga gorizontallar nomi va saqlash manzili kiritiladi (5.37-rasm, 5). “Contour interval” qatoriga esa gorizontallar qadami kiritiladi (5.37-rasm, 6).



5.37-rasm. Gorizontallarni yaratish instrumenti (rasm muallif tomonidan ArcMap dasturida tayyorlandi)

Gorizontallarni yaratib bo‘lganimizdan so‘ng, endi ArcScene dasturida hududning 3D relyefini yaratib olamiz. ArcScene dasturi ishga tushganidan so‘ng Bo‘stonliq shaklidagi rastr ma’lumotini ochib olamiz.

Bu rastr ma’lumotlarining piksel masofasi 12,5 metrga teng. Bu degani har 156,25 m^2 joyda bitta otmetka mavjud. Bunday DEM suratlari o‘zida balandliklari mavjud bo‘lgan tasvirni anglatadi. Bu tasvirimizani 3D ko‘rinishga ko‘tarish uchun biz quyidagi amalni bajarishimiz kerak. Chaqirib olingan rastr qatlamining parametrlariga kiramiz, ya’ni qatlamga sichqonchani olib borib o‘ng tugmasi bosiladi. Shundan so‘ng “Properties…” qatori tanlanadi (5.39-rasm, 2). Qatlam parametrlari oynasi ochilganida “Base Heights” bo‘limiga o‘tamiz va “Floating on a custom surface” qatoriga belgi qo‘yamiz (5.39-rasm, 4). “OK” tugmasini bosganimizda rastr ma’lumoti 3D ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin, lekin sezilarsiz darajada. Shu sababli vertikal bo‘rttirish jarayonini amalga oshirishimiza kerak bo‘ladi. Buning uchun Sahna parametrlari kiramiz (5.40-rasm, 2). Sahna parametrlari oynasi ochilganida “Calculate From Extent” tugmasi bosiladi va avtomatik tarzda dastur o‘zi hisoblab rastr ma’lumotining 3D modelini vertikal bo‘rttirib beradi (5.40-rasm, 3).



5.38-rasm. ArcScene dasturiga rastr ma’lumotlarini qo‘shish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



5.39-rasm. Rastr ma’lumotlarini 3D ko‘tarish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)



5.40-rasm. Vertikal bo‘rttirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Endi oldingi boblarda bajarganimizdek rastr ma’lumotiga ranglar tasvirini o‘zgartiramiz. Ranglar tasviri boshida chaqirib olganimizda oq-qora ranglarda tasvirlangan bo‘ladi. Biz esa unga  ranglarni beramiz. 3D modelimiza ko‘rinishi sifatli bo‘ladi. Modelga yaqinlashtirganimizda ranglar to‘rtburchak shaklda ajralib turganini ko‘ramiz. Biz esa unga uzluksiz ranglar tasvirida ko‘rsatishimiza kerak. Buning uchun qatlam parametrlariga kiramiz va Display bo‘limida “Resample during display using” qatorida “Bilinear Interpolation (for continuous data)” tanlanadi (5.41-rasm).



5.41-rasm. Ranglar tasvirini uzluksiz tasvirga keltirish (rasm muallif tomonidan ArcScene dasturida tayyorlandi)

Natijada biz Bo‘stonliq tumanining 3D relyef modelini ASF Vertex sayti orqali DEM suratlarini qayta ishlash asosida ArcGIS Desktop dasturida yaratilishini o‘rganib chiqdik va natija 5.42-rasmda keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Charles D. Ghileni and Paul R. Wolf. Elementary Surveying - An Introduction to Geomatics, 12th Edition _ textbook. USA, New Jersey, 2013

2. Antonovich K.M. Ispolzovaniye sputnikovыx radionavigatsionnыx sistem v geodezii. V 2 tomax. GOU VPO «Sibirskaya gosudarstvennaya geodezicheskaya akademiya». - M.: FGUP «Kartgeotsentr», T 1: 2005. - 334 ye.: il., T 2: 2006. - 360 s.: il

3. Genike A.A., Pobedinskiy G.G. Globalnaya sputnikovaya sistema opredeleniya mestopolojeneiya GPS i yeyo primeneniye v geodezii. M.: Kartgeotsentr-Geodezizdat, 1999g.

4. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.

5. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma’lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2015 y.

6. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.

7. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: “Iqtisod moliya”, 2011.

8. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI

Press, 2010

ASF Vertex saytidan olingan materiallar asosida Bo'stonliq tumanining 3D relyef model





10-amaliy mashg‘ulot: Agisoft dasturi yordamida aerofotosuratlarni tuzatish va ortofotoplan tuzish

Ishdan maqsad: Agisoft dasturini o‘rganish.

Bajariladigan vaqt: 30 minut

Masalaning qo‘yilishi: Agisoft dasturining funksiyalarini o‘rganish. Hududning modelini yaratish.

Agisoft kompaniyasi – fotogrammetriya va 3D modellashtirish bo‘yicha yetakchi dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilardan biri. Kompaniyaning eng mashhur mahsuloti **Agisoft Metashape** (ilgari PhotoScan deb atalgan) bo‘lib, u fotosuratlar asosida yuqori aniqlikdagi 3D modellar, ortofoto xaritalar va raqamli relyef modellarini (DEM) yaratishga imkon beradi. Ushbu dastur dunyo bo‘ylab geodeziya, arxeologiya, qurilish, kartografiya, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi.

Agisoft Metashape ning funksiyalari:

1. **Fotosuratlar asosida 3D modellar yaratish.** Metashape bir nechta rasmlarni birlashtiradi va ulardan nuqta buluti (point cloud), uchburchakli mesh (triangular mesh) va teksturalangan 3D modellar hosil qiladi. Bunda oddiy kameralar yordamida olinadigan suratlar ham yetarli bo‘ladi.
2. **Raqamli relyef va ortofoto xaritalar yaratish.** Agisoft Metashape raqamli relyef modellarini (DEM) hamda o‘ta aniq ortofoto xaritalarni yaratishda keng qo‘llaniladi. Bu, ayniqsa, yer yuzasi haritalarini tuzishda muhimdir.
3. **Fotogrammetrik o‘lchovlar va georeferatsiya.** Dastur obyektlar va landshaftlarning maydon, masofa va hajmini aniq o‘lchash imkonini beradi. Georeferatsiya yordamida natijalarni global koordinata tizimlariga moslashtirish mumkin.
4. **Yuqori aniqlik.** Agisoft Metashape yordamida millimetrgacha aniqlikdagi modellarga ega bo‘lish mumkin. Bu aniqlik o‘rmon, binolar yoki texnik obyektlar uchun juda muhimdir.
5. **Ko‘p formatlarni qo‘llab-quvvatlash.** Metashape o‘z natijalarini mashhur GIS, CAD va 3D dasturlari formatlariga eksport qilish imkonini beradi. Bu esa uni boshqa dasturiy ta'minotlar bilan integratsiyalash imkoniyatini oshiradi.

Dasturdan foydalanish sohalari:

- **Geodeziya va kartografiya.** Landshaftlarni xaritalash, joylarning 3D modellarini tuzish, raqamli relyeflarni yaratish uchun ishlatiladi.
- **Arxeologiya.** Qadimiy obyektlarning raqamli nusxalarini yaratish va ularni tadqiq qilishda foydalidir. Bu usul buyumlarni butunlikda saqlash imkonini beradi.
- **Qurilish va muhandislik.** Qurilish maydonlarini nazorat qilish va loyiha ko‘rsatkichlarini aniq o‘lchashda foydalaniladi.

- **Qishloq xo‘jaligi.** O‘simliklarning holatini monitoring qilish, ekinlar va ularning vegetatsiya jarayonlarini tahlil qilishda yordam beradi.
- **Raqamli texnologiyalar va media.** Virtual haqiqat (VR), o‘yinlar va filmlar uchun yuqori sifatli 3D obyektlar yaratishda qo‘llaniladi.

Agisoft dasturida hududning modelini qurish aerofotosurat ma'lumotlari asosida

Agisoft dasturida aerofotosuratlardan foydalanib model yaratish jarayoni fotosurat yani rastrlarni dasturga tashab qayta ishlashdan boshlanadi.

Bizning qilgan ishlarimiz ketma-ketligi:

1)Rasmlar fayl bilan birgalikda tashlandi.



2)Dasturga rasmlarni qayta ishlash buyrug’ini berdik va dastur rastrdagi nuqtalarni aniqlab chiqdi.



3)Nuqtalar qayta ishlanayotgan paytda yanada aniqroq natijaga erishish uchun rastrlarga tayin markerlar qo’yiladi.Mazkur markerlar har bir rastr bo’yicha to’g’rilanadi.



4)Yengil filtratsiya qilindi rasmlar hamda nuqtalar zich holat(Плотное облако)ga keltirildi.



5) Плотное облако ning perspectiv ko’rinishi.







6)Достоверность плотного облако ning perspectiv ko’rinishi.



7) Классификация плотного облако ning perspectiv ko’rinishi.



8)Model ko’rinishi perspective



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Charles D. Ghileni and Paul R. Wolf. Elementary Surveying - An Introduction to Geomatics, 12th Edition _ textbook. USA, New Jersey, 2013

2. Antonovich K.M. Ispolzovaniye sputnikovых radionavigatsionnых sistem v geodezii. V 2 tomax. GOU VPO «Sibirskaya gosudarstvennaya geodezicheskaya akademiya». - M.: FGUP «Kartgeotsentr», T 1: 2005. - 334 ye.: il., T 2: 2006. - 360 s.: il

3. Genike A.A., Pobedinskiy G.G. Globalnaya sputnikovaya sistema opredeleniya mestopolojeneiya GPS i yeyo primeneniye v geodezii. M.: Kartgeotsentr-Geodezizdat, 1999g.

4. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.

5. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 y.

6. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.

7. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.

8. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010

11-amaliy mashg'ulot: Agisoft dasturi yordamida hududning 3D ko'rinishini chiqarish

Ishdan maqsad: Agisoft dasturi yordamida aerosuratlarni qayta ishlash va hududning 3D modelini yaratish

Bajariladigan vaqt: 30 minut

Masalaning qo‘yilishi: Variantlar otanlanadi va variantlarda ko’rsatilgan aerosuratlarni qayta ishlab joyning 3D modeli yasaladi. Variantlarni quyidagi link orqali olish mumkin: https://t.me/Geomatica_TUACE.

1.Agisoft MetaShape dasturini ochish.



11-rasm

2. Agisoft Metaform dasturida variantni ochish.



12-rasm



13-rasm



14-rasm



15-rasm



16-rasm



17-rasm



18-rasm



19-rasm



20-rasm



21-rasm


Файл Правка Вид Обработка Модель Снимок Орто Инструменты Справка
Проект
Построить модель
Свойство
Плотное облако
Параметры построения карт глубины

22-rasm


Файл Правка Вид Обработка Модель Снимок Орто Инструменты Справка
Проект
Обработка в процессе выполнения...
Свойство
Плотное облако
Параметры построения карт глубины

23-rasm



24-rasm



25-rasm


Файл Правка Вид Обработка Модель Снимок Орто Инструменты Справка
Проект
Свойство
Модель
Параметры построения карт глубины

26-rasm


Файл Правка Вид Обработка Модель Снимок Орто Инструменты Справка
Проект
Свойство
Модель
Параметры построения карт глубины

27-rasm



28-rasm



29-rasm



30-rasm



31-rasm



32-rasm



33-rasm



34-rasm



35-rasm



36-rasm



37-rasm



38-rasm

5.ArkMap dasturi yordamida xaritalarni dizaynlash.

Xaritani dizaynlashda dasturning Vstavka panelidan foydalaniladi. Ushbu panel ArkMap dasturi yuqori qismida joylashgan.



39-rasm

Yaratiladigan xaritalarda eng muhim talab etiladigan belgilar bular Shimol va masshtablaridir ular quyidagi tartibda qo’yiladi.



40-rasm



41-rasm

Vstavka bosiladi, shimol belgilari qatori tanlanadi va natijada hosil bo’lgan oynadan kerakli shimol belgisi tanlanadi va OK tugmasi bosiladi. Natijada xaritada shimol belgisi paydo bo’ladi. Uni kerakli joyga olib borish va kattalashtirish imkoni mavjud yuqoridagi rasmda. Masshtab belgisini qo’yishda ham xuddi shu tartib ish amalga oshiriladi Vstavka bosiladi, masshtab belgisi qatori tanlanadi va natijada hosil bo’lgan oynadan kerakli masshtab belgisi tanlanadi va o’lchov birligi belgilanadi va OK tugmasi bosiladi. Natijada xaritada masshtab belgisi paydo bo’ladi. Uni kerakli joyga olib borish va kattalashtirish imkoni mavjud.

V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1–ko‘chma mashg‘ulot: Geodeziya va kartografiya sohasining asosiy prinsiplari.

Ishdan maqsad: O‘zbekiston Respublikasida geodeziya va kartografiya sohasining asosiy prinsiplarini o‘rganish va ularni takomilashtirish yo‘llarini izlash.

Masalaning qo‘yilishi: O‘zbekiston Respublikasida geodeziya va kartografiya sohasining asosiy prinsiplarini rivolanish tendensiyalari

Geodeziya qadimgi fanlardan biri bo‘lib, uning yutuqlari matematika yoki astronomiya yutuqlariga qaraganda kamroq ma’lum. Har bir talaba astronomiya sohasidagi ko‘plab formulalar va kashfiyotlarni biladi, ammo ko‘p odamlar geodeziyadagi kashfiyotlar haqida bilishmaydi. Shu bilan birga, geodeziya sohasidagi ma’lumotlardan foydalanmasdan, hozirgi hamjamiyatning shakllanishini tasavvur qilishning deyarli imkoni yo‘q. Geodeziya-bu Koinot shakllari va o‘lchamlarini o‘rganish uchun yer yuzasi tadqiqotlarini to‘g‘ri ishlab chiqarish, shu jumladan er maydonlari va uning uchastkalarini rejalar va xaritalash tarmoqlarida to‘g‘ri xaritalash bo‘yicha ilmiy intizom. Bundan tashqari, astronomiyadagi geodeziya murakkab muhandislik va texnik muammolarni, shuningdek iqtisodiyotdagi muammolarni hal qilish uchun muhim bo‘lgan ixtisoslashtirilgan o‘lchash usullarini o‘rganadi. To‘liq ma’noda, geodeziya kartografiya bilan chambarchas bog‘liq, chunki ushbu fanlar turli xil xaritalar va sxemalarni yaratish va qo‘llash tartiblari va asoslarini o‘rganadi.

Kartografiya-bu jamiyatning tabiiy jarayonlari va faoliyatini xaritalarda, shuningdek boshqa kartografik loyihalarda aks ettiradigan ilmiy fan. Shu jumladan, ushbu grafik tasvirlarning xususiyatlarini, shuningdek ularni shakllantirish va ulardan foydalanish usullarini aks ettiradi. Kengroq talqinda kartografiya biznes faoliyati va texnologik jarayonlarni qamrab oladi. Kartografiyaning yutuqlari atlas xaritalarida, hududlarning relyef rejalarida, shuningdek geodeziya sanoati mahsulotlarini tashkil etuvchi boshqa tasvirlarda amalga oshiriladi.

KARTOGRAFIYA VA GEODEZIYANING ASOSIY PRINTSIPLARI

Kartografiyaning asosiy printsiplariga quyidagilar kiradi:

Umumiy fuqarolik va umumiy sanoat qurilishining yangi suv zonalari va er maydonlarini izchil o‘rganish va o‘rganish.

* Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan maqsadga muvofiq foydalanishning kartografik shakllanishi.

* Energiya g‘oyalarini shakllantirish va talqin qilish.

Kartografiya predmeti va usullarini turlicha belgilaydigan bir qator qoidalar mavjud. Masalan, bilimga hissa qo‘shadigan tizim kartografiya mavzusini geodeziya modellashtirish tufayli voqelikni bilish fanidagi yo‘nalish sifatida, strukturaning o‘zi esa voqelikning maketi sifatida izohlaydi. Kommunikativ nazariyaga ko‘ra, kartografiya fazoviy ma’lumotlarni tarjima qilish zanjiri hisoblanadi.

Uzoq muddatli printsiplarga quyidagilar kiradi:

* Yerning o‘lchamlari, shakli va tortishish maydonini aniqlash.

* Muayyan davlatda koordinatalarning umumbashariy, kümülatif kontseptsiyasini kengaytirish.

* Topografik xaritalarda yer yuzasining to‘g‘ri tasviri.

* Yer qobig‘ining keng ko‘lamli siljish jarayonlarini o‘rganish.

Yaqin kelajakda diqqatga sazovor joylarga quyidagilar kiradi:

* Geoaxborot tizimlarini yaratish va targ‘ib qilish.

* Mahalliy, shuningdek davlat kadastrlarini ishlab chiqish.

* Topografik va geodezik qo‘llab - quvvatlash va ma’lum bir davlatning chegara chegaralarining belgilangan ta’riflari

* Raqamli kartografiya sohasida standart standartlarni mustahkamlash.

* Eng muhim koordinata nuqtalarini avtonom ravishda o‘rnatish uchun sun'iy yo‘ldosh usullariga ketma-ket o‘tish orqali davlat dasturini loyihalash va yaratish.

Geodeziya va kartografiya ko‘plab ilmiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Bularga quyidagilar kiradi: sotsiologiya, iqtisodiyot, shuningdek boshqa ko‘plab texnik va tabiiy fanlar. Geodeziya va kartografiya fanlari deyarli barcha bilim sohalari bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Bugungi kunda turli xil g‘oyalar va tushunchalarni xaritalash uchun kartografik metodologiyaga muhtoj bo‘lmagan har qanday faoliyat sohasini tasavvur qilish qiyin.

